

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/30.12.2019. Tar.78.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**NORBO‘TAYEV PARDA PANJIYEVICH**

**JANUBIY O‘ZBEKISTON AHOLISI ETNIK XUSUSIYATLARINING  
XALQ DOSTONLARIDA AKS ETISHI**  
(Qashqadaryo vohasi dostonchilik an‘analari misolida)

**07.00.07. – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2023**

UDK: 39 (575.1)398.2(575.152)

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**

**Content of the abstract of dissertation of doctor of sciences (DSc)**

**Norbo‘tayev Parda Panjiyevich**

Janubiy O‘zbekiston aholisi etnik xususiyatlarining xalq dostonlarida aks etishi.....5

**Норбутаев Парда Панжиевич**

Отражение в народных поэмах этнических особенностей населения южного Узбекистана.....33

**Norbutaev Parda Panjievich**

Reflection of ethnic characteristics of the population of south Uzbekistan in folklore.....67

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Spisok opublikovannых rabot  
List of published works .....73

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PhD. 03/30.12.2019. Tar.78.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**NORBO‘TAYEV PARDA PANJIYEVICH**

**JANUBIY O‘ZBEKISTON AHOLISI ETNIK XUSUSIYATLARINING  
XALQ DOSTONLARIDA AKS ETISHI**

(Qashqadaryo vohasi dostonchilik an‘analari misolida)

**07.00.07. – Etnografiya, etnologiya va antropologiya**

**Tarix fanlari doktori (Doctor of Science) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Termiz – 2023**

**Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2017.3.DSc/Tar.75 raqam bilan ro'yxatga olingan**

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)) va "ZiyoNET" axborot-ta'lim portali ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) manzillariga joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Rajabov Rustam A'zamovich**  
tarix fanlari doktori

**Rasmiy opponentlar:**

**Davlatova Saodat Tilovberdievna**  
tarix fanlari doktori

**Tursunov Nurullo Narzullaevich**  
tarix fanlari doktori, dotsent

**Bakirov Poyon Uralovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Etakchi tashkilot:**

**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD 03/30.12.2019. Tar.78.02 raqamli Ilmiy Kengashning 2023 yil «13.02» kuni soat 16.00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino 4-qavat, Majlislar zali). Tel.: (99876) 223-13-11; e-mail: [termizdu@umail.uz](mailto:termizdu@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (126 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy) Tel/faks: 03762217690

Dissertatsiya avtoreferati 2023... yil «31» 01 kuni tarqatildi.  
(2023 yil «31» 01 daqi 3-raqamli reestr bayonnomasi bilan).



**S.N.Tursunov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik Ilmiy Kengash  
raisi, t.f.d. professor

**X.E.Xolmuminov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik Ilmiy Kengash  
kotibi, t.f.n., dotsent

**S.T.Davlatova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
bir martalik Ilmiy Kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi, t.f.d.

## **KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon hamjamiyatining integratsiyalashuvi sharoitida, mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda milliy madaniyatlarni saqlash, o'rganish dolzarb ahamiyatga ega. Aynan dostonlarda aks etgan milliy madaniyatlar jamiyatning an'analari va yangiliklari uyg'unligini, shu bilan birga ma'naviy-ma'rifiy, ruhiy-ahloqiy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Jumladan, 2019 yil 5-10 aprel kunlari Surxondaryo viloyati Termiz shahrida Birinchi «Xalqaro baxshichilik san'ati» festivali bo'lib o'tishi ham mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

Jahonda an'anaviy dostonchilik madaniyatining etnografik xususiyatlari mavzusi tarixiy, nomoddiy madaniy merosni saqlash hamda uni targ'ib qilishda san'at antropologiyasi, ijtimoiy antropologiyaning asosiy ob'ekti sifatida turli madaniyatlar sohasida o'rganilmoqda.

Mustaqillik yillarida xalqning qadimiy nomoddiy madaniy merosini o'rganish va targ'ib etish bilan birga xalq dostonlarini yangicha ilmiy tafakkur va mezonlar asosida tizimli etnografik jihatdan o'rganish tamoyillari ham shakllantirildi. Bu borada O'zbekistonda milliy o'zlikni anglash va ma'naviy tiklanish, dostonchilik an'alarini etnografik ob'ekt sifatida har tomonlama targ'ib qilish, davlatlararo o'zaro aloqa va madaniy munosabatlarni rivojlantirish, mazkur sohani etnologiya fanining ilmiy nazariy qarashlar kontekstida o'rganish, xorijiy mamlakatlarning nufuzli tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni kengaytirish muhim o'rin tutadi. SHu bois, dostonlarda aks etgan milliy qadriyatlarni tarixiy-etnografik yo'nalishda tadqiq qilish imkoniyatlaridan samarali foydalanish, asrlar davomida sayqallanib kelgan epik ijodiyotga bugungi kun nuqtai nazaridan tadqiq qilish zaruratini tug'diradi.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida", 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmonlari, 2018 yil 1 noyabrdagi PQ-3990-sonli «Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida»gi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 21 noyabrdagi 222-sonli "2010 - 2020 yillarda nomoddiy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrab-avaylash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida" gi, 2011 yil 23 maydagi 47-sonli "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi, 2018 yil 22 noyabrda "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 946-sonli Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishtirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>1</sup>.** Xalq dostonlarida talqin etilgan syujetlarning etnografik aspektlari, genetik asoslari va epik an‘ananing rivojlanish tamoyillari va etnofolklor tafakkurda tutgan o‘rniga doir ilmiy-nazariy izlanishlar jahonning etakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan: University of Harvard (AQSH), University of British Columbia (Kanada); Zhōngguó Shéhuì Kéxuéyàn (Xitoy); Academy of Korean Studies Grant (Koreya respublikasi); Institute for Political and International Studies (Eron); Ege Universiteti (Turkiya); Azərbaycan Milli Elmlər Akademiyası Folklor Instituti (Ozarbayjon); Euraziya ʻlittıyq universiteti (Qozog‘iston) va boshqa ilmiy markazlarda olib borilmoqda.

Jahon etnofolklorshunosligida epik asarlarning etnografik tasnifi va paydo bo‘lish manbalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida «Edige» dostonida qo‘llanilgan etnonimlarni tadqiq qilish natijasida mazkur qahramonlik eposining shakllanish manbalari aniqlangan (Bonn universiteti, Germaniya); jahon xalqlari eposining shakllanishi arxaik, o‘rta asr mifologiyasi va neomifologizm bosqichlaridan iboratligi dalillangan (University of Harvard, USA); ilmiy qiyoslash, tarixiy-genetik va tipologik usullarni qo‘llash natijasida Markaziy Osiyo xalqlari etnofolkloriga oid xususiyatlari ochib berilgan (University of British Columbia, USA); xalq ijodining etnografik genezisi, tipologiyasi misolida Markaziy Osiyo xalqlari etnofolklor tafakkuri rivojiga ta’siri masalalari o‘rganilgan (University of Oxford, USA); Xitoy mif va rivoyatlarining yozma etnofolkloriga ta’siri aniqlangan (University of Peking, Beijing); o‘zbek va koreys qahramonlik dostonlarining («Alpomish» va «Jumo‘ng») o‘ziga xos xususiyatlari, etnografik syujet tuzilishi va genezisdagi mushtarak jihatlarni aniqlash asosida koreys eposining tarixiy-genetik asoslari qadimgi turkiy epik an‘analarga aloqadorligi isbotlangan (Academy of Korean Studies Grant, Koreya respublikasi).

Dunyoda etnologik jihatdan folklor materiallarining etnografik xususiyatini o‘rganishga doir xalq dostonlarining tarixiy-etnografik xususiyatlarini lokal va global simbiozi, xalq dostonlarining tarixiy genetik asoslarini o‘rganish, qahramonlik eposlarining shakllanish jarayoni, etnografiya va folklor fanlarining “sinkretik” aspektlari hamda xalq baxshilarini ijodiga yangicha metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etish kabi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda.

---

<sup>1</sup> Диссертация мавзуси бўйича хорижий тадқиқотлар шарҳи: <https://www.harvard.edu>; <https://www.ubc.ca>; <http://cass.sn>; <http://www.ipis.ir>; <http://tdae.ege.edu.tr>; <http://science.gov.az>; <http://kalmsu.ru>; <http://www.enu.kz>; <https://www.knu.kg>; [www.til-adabiyot.fan.uz](http://www.til-adabiyot.fan.uz); <http://urdu.uz> ва бошқа манбалар асосида амалга оширилди

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Tadqiqot mavzusi tarix, folklorshunoslik, tilshunoslik va qisman etnografik izlanishlar asosida yoritilgan bo'lib, muammoga doir nazariy-metodologik qarashlar tarixiy-etnografik jihatdan tahlil qilinmagan.

Sovet davrida yaratilgan tadqiqotlar folklorshunoslik nuqtai nazaridan yoritilgan ma'lumotlarning boshqa hududlar misolida tavsifiy jihatlari bayon qilingan bo'lib, dostonlarda xalq turmush tarzi, etnik tarixi, an'ana, urf-odat va marosimlariga oid masalalarga alohida urg'u berilmagan.

Mustaqillik davri va xorijiy tadqiqotlarda xalq dostonlarining badiiy xususiyatlari, umumiy va o'ziga xosligi masalasi adabiy-badiiy uslubda o'rganilgan bo'lib, dostonlardagi etnografik xususiyatlar hamda ularning tahlili janubiy mintaqalar aholisi milliy xususiyatlariga tayangan holda yoritib berilmagan. (Tadqiqotning o'rganilish darajasi haqida dissertatsiyaning 1 bobida batafsil ma'lumotlar berilgan).

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.**

Tadqiqot Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti ilmiy tadqiqot rejasi hamda 2007-2011 yillarda bajarilgan OT-F8-211–“XX asr O'zbekiston madaniyati tarixi” (2007-2011) mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** XX asrning 40-yillari - XXI asr boshlari O'zbekiston janubiy hududlari aholisi dostonlarida etnografiyaga oid ma'lumotlarni dala materiallari asosida yoritib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

jahon etnologiyasi va folklorshunosligida e'tirof etilgan ilmiy qarashlar tahlili asosida dostonchilik an'analari o'rganishning nazariy-uslubiy jihatlari tadqiq etish;

mavzu tarixshunosligini tahlil qilish;

dostonlarning etnografik manba sifatidagi o'rnini asoslash;

xalq dostonlarida etnoslararo munosabatlar va etnonimlar talqini etnografik jihatdan tahlil qilish;

hududlar dostonchiligida Chorvador aholi xo'jalik madaniyati bilan bog'liq materiallarni aniqlash;

xalq dostonlarida vohalar aholisi dehqonchiligiga oid odatlarning etnografik xususiyatlarini tahlil etish;

hunarmandchilik kasbi-kori bilan bog'liq mehnat turlarining janubiy vohalar dostonchiligidagi talqinini o'rganish;

Qashqadaryo va Surxondaryo vohalari aholisi xalq dostonlarida bolalik davri udumlari va ularni ilmiy tadqiq etish;

dostonlarda nikoh munosabatlariga oid etnografik ma'lumotlarni aks etishi va ularning mahalliy xususiyatlarini aniqlash;

hududlar dostonchiligida qadimiy diniy e'tiqodlarning yoritilishi va ularning etnografik ahamiyatini ko'rsatib berish;

ilmiy xulosalarga tayangan holda O‘zbekistonning janubiy hududlari aholisi dostonchilik an‘analarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi amaliy, nazariy taklif va tavsiyalarni bayon qilish.

**Tadqiqotning ob‘ektini** XX asrning 40-yillari - XXI asr boshlarida Janubiy O‘zbekiston aholisi dostonchilik an‘analarida etnik xususiyatlar bilan bog‘liq ma‘lumotlarni etnografik jihatdan tahlil etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida Janubiy O‘zbekiston aholisi etnik xususiyatlarining xalq dostonlarida aks etishi jarayonlari belgilangan.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada etnologik izchilliq, tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-etnografik, fanlararo yondoshuv, retrospektiv, kartografik, qiyosiy-tipologik, kuzatuv usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

etnologiya va folkloristika fanlaridagi ilmiy nazariy qarashlar xalq og‘zaki ijodi an‘analarini qiyosiy-etnografik, tarixiy-qiyosiy, kartografik va qiyosiy-tipologik, fanlararo yondashuv usullar asosida ko‘rsatib berilgan;

O‘zbekistonning janubiy hududlari xalq baxshilari ijodidagi “Alpomish” dostoni variantlarida aks etgan etnoslararo munosabatlar, qirg‘iz xalqining “Manas” dostonida talqin etilgan etnik parallellar qiyosiy-tipologik, retrospektiv usullarga ko‘ra ochib berilgan;

“Alpomish” va “Yozi bilan Zebo” dostonlarida mintaqa aholisining xo‘jalik faoliyatidagi chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilikka oid urf-odatlarining mahalliy xususiyatlari etnologik izchillik va kuzatuv usullari asosida ochib berilgan;

“Alpomish” dostonining o‘zbek, qozoq va qoraqalpoq variantlarida ifodalangan bolalik davri va oilaviy nikoh munosabatlari etnologik izchillik, qiyosiy-tipologik va retrospektiv usullarga ko‘ra tahlil qilingan;

Janubiy O‘zbekiston aholisi dostonchilik an‘anasining “Alpomish”, “Yozi bilan Zebo” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida talqin etilgan qadimiy diniy e‘tiqodlarning mahalliy xususiyatlari etnologik jihatdan aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari.** O‘zbekiston etnologiyasi fanida mavjud tarixiy-falsafiy qarashlardan janubiy hududlar aholisi xalq og‘zaki ijodiyoti an‘analari muammosini fanlar kesimida etnografik jihatdan tadqiq etishning nazariy-uslubiy jihatlari ishlab chiqilgan;

tadqiqot davomida yig‘ilgan tarixiy-etnografik materiallar, arxiv hujjatlaridan olingan ma‘lumotlar hamda ilmiy xulosalar respublika va viloyatlar “Etnografiya va folklor” uyushmalari, muzeylarda ekspozitsiya va tadbirlar ishlab chiqish, davlat dasturlari ijrosi, oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida xalq dostonlarining etnografik manba sifatidagi o‘rni bo‘yicha maxsus kurslar o‘tishda asos bo‘lgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Ishda etnologiya fanida tan olingan yondashuv va usullar qo‘llanilganligi, ko‘p turdagi tarixiy va etnografik adabiyotlar hamda folklorshunoslik arxivi materiallaridan foydalanilganligi, dala-etnografik materiallar, o‘rganilayotgan hududlar baxshilari faoliyatidan Yozib olingan doston variantlari, davriy matbuot, huquqiy-me‘yoriy hujjatlarga

asoslangan xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O‘zbekiston tarixining XX asrning 40-yillari – XXI asr boshlari kontekstida janubiy hududlar aholisi dostonlarida aks etgan etnografik ma’lumotlar, aholi turmush tarzi bilan bog‘liq urf-odat va marosimlar mohiyatini umumlashtiruvchi nazariy xulosalar hamda dala etnografik ma’lumotlari, tarix, etnografiya, folklorshunoslik va tilshunoslik fanlari yo‘nalishlarini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning amaliy ahamiyati jamiyatning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi, o‘zbek xalqi tarixiy va madaniy merosini asrash, boyitib borish, milliy mafkurani shakllantirishda maqsadli davlat dasturlarining bajarilishiga, Shuningdek, o‘zbek xalqi madaniyatiga oid bilimlarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** XX asrning 40- yillari - XXI asr boshlarida janubiy hududlar baxshilari tomonidan ijro etilgan dostonlarda aks etgan urf-odat, an‘analarni etnologiya fani nuqtai nazaridan o‘rganish natijalari asosida:

Janubiy mintaqa aholisining “Alpomish”, “Yozi bilan Zebo” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining tarixiy ahamiyati, etnografik xususiyatlari, umumiy va o‘ziga xosligi masalasi yangi fakt va ma’lumotlar asosida, Shuningdek, xalqlar do‘stligi va ijtimoiy muammolar, madaniy va ma’naviy an‘analarga oid ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining Mustaqillik davri ekspozitsiyasini yaratishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining 2021 yil 18 oktyabrdagi 159-son ma’lumotnomasi). Natijalar dostonlarda talqin etilgan xalq etnik tarixi, oilaviy-maishiy marosimlari va xo‘jalik xususiyatlariga oid ma’lumotlarni maxsus tadqiq etish etnologiya fani uchun noyob va qimmatli etnografik materiallarni etkazib berishga xizmat qilgan;

O‘zbekistonning janubiy hududlari dostonchiligi an‘analarida muhim o‘rin tutgan “Alpomish”, “Yozi bilan Zebo” dostonlari misolida aholining oilaviy-maishiy va xo‘jalik madaniyatiga doir ma’lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi huzuridagi Ma’naviyat va ma’rifat markazining 2019-2020 yillardagi targ‘ibot tadbirlarida keng foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim Vazirligi huzuridagi ma’naviyat va ma’rifat markazining 2021 yil 16 noyabrdagi №144-son ma’lumotnomasi). Tadqiqot natijalari milliy baxshichilik va dostonchilik san‘atining noyob namunalarini asrab-avaylash, rivojlantirish, uni keng targ‘ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san‘at turiga hurmat, e’tibor tuyg‘ularini kuchaytirishga xizmat qilgan;

“Alpomish”, “Yozi bilan Zebo” dostonlari va baxshilar faoliyatidagi qo‘shiqlarda aks etgan janubiy hududlar aholisini xo‘jalik madaniyatining

mahalliy xususiyatlari bilan bog‘liq ma‘lumotlardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2021 yil 19 noyabrdagi 01-40-1761-son ma‘lumotnomasi). Natijalar dostonlarning hozirgi davr yoshlar ta‘lim-tarbiyasidagi ahamiyati, milliy ma‘naviyatning yuksalishidagi ta‘sirini oshirishda xizmat qilgan.

“Alpomish”, “Yozi bilan Zebo” dostonlarida aks etgan janubiy hududlar aholisi hunarmandchilik kasbi-kori bilan bog‘liq etnografik ma‘lumotlardan O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligiga tegishli Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyining “Xalq amaliy san‘ati va etnografiyasi” bo‘limida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligi huzuridagi madaniy meros agentligining 2021 yil 19 noyabrdagi №03-01/216-son ma‘lumotnomasi). Tadqiqot natijalari doirasida muzey fondida 10 dan ziyod eksponatlar yig‘ilgan hamda ular ekspozitsion rejalarini tuzishda va ko‘rgazmalar tashkil etishda, ekskursiya matnlarini yangi nazariy matnlar bilan boyitishga xizmat qilgan;

Vohalarning “Alpomish”, “Yozi bilan Zebo” dostonlarida bolalik davri bilan bog‘liq urf-odatlar, oilaviy-nikoh munosabatlari, nikoh shakllari va qadimiy diniy e‘tiqodlar bilan bog‘liq udumlar aks etgan tadqiqot xulosalaridan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasining 2019 yilga mo‘ljallangan ish rejasini IV. “Ijtimoiy sohani rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlari” bo‘limining 21-bandi: “Buyuk alloma va adiblarimiz, aziz avliyolarimiz, engilmas sarkarda va arboblarning bebaho merosi, milliy qahramon (“Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Tohir va Zuhra”, “Yozi bilan Zebo”) larimiz jasoratini yoshlar ongi va shuuriga bolalik davridan boshlab singdirish, ularda milliy g‘urur va iftixor tuyg‘ularini shakllantirish, siyosiy-milliy madaniyatini rivojlantirish yuzasidan takliflar ishlab chiqishda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy tiklanish Demokratik partiyasi Markaziy Kengashining 2021 yil 19 noyabrdagi 02/03-389-son ma‘lumotnomasi). Mazkur taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi ish rejasida foydalanishi hamda amaliyotga joriy etilishi fuqarolarning milliy va umumbashariy qadriyatlarini rivojlantirish, jamiyat barqarorligini ta‘minlashning mafkuraviy omillariga partiya e‘tiborini yanada kuchaytirishga xizmat qildi

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 10 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 35 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, 7 ta xalqaro konferensiya, 2 ta xalqaro ilmiy jurnal va 12 ta maqola Oliy attestatsiya komissiyasi tasarrufidagi va 13 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya va ilmiy-ommabob jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to‘rt asosiy bob, xulosa va foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 226 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Muammoni o'rganish metodologiyasi va mavzu tarixshunosligi”** deb nomlangan birinchi bobida etnografiya va folklor fanlarining o'zaro aloqadorlik masalalarini o'rganishning ilmiy nazariy metodlari, ularning o'zaro bog'liqlik qonuniyatlarini tadqiq etishning etnofolkloristik prinsiplari bayon qilingan hamda muammo tarixshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilingan.

*Birinchi bobning “Mavzu tadqiqiga oid etnologik yondashuvlarning nazariy jihatlari”* nomli paragrafida etnologiya fani tadqiqot ob'ektida etnografiya va folklor fanlarining o'zaro aloqadorlik xususiyatlarini tadqiq etish tarixshunoslik nuqtai-nazardan ilmiy asoslangan.

Dissertatsiyada etnografiya va folklor fanlarining prinsipial bir-biriga bog'liqligining metodologik asoslari va ilmiy-nazariy qarashlari etnoantropolog olimlar E. Taylor<sup>2</sup>, T. Vays<sup>3</sup>, A. Bastian<sup>4</sup>, V. Vundt<sup>5</sup>, J. Frezer<sup>6</sup> asarlari mazmun-mohiyatiga tayangan holda ilmiy tadqiq etilgan.

E. Taylor “evolyusionistik nazariya” yoki «qiyosiy-etnografik metod» tamoyillari asosida insoniyat tarixida muhim o'rin tutgan etnofolklor madaniyatning ibtidoiy davrdan sivilizatsiyagacha bosib o'tgan taraqqiyot bosqichini ilmiy jihatdan tadqiq etgan<sup>7</sup> bo'lsa, J. Frezerning “Oltin butoq” asari<sup>8</sup> da «qiyosiy-etnografik» metodi etnofolklor bilimlarning aloqadorlik xususiyatlarini o'rganish jarayonida uslubiy jihatdan qo'llanilgan bo'lib, unda etnografiya va folklorshunoslik fanlari uchun muhim bo'lgan fundamental ilmiy nazariy qarashlar yoritilgan.

Fransuz olimi Arnold Van-Gennep ham etnologiya fanida etnografiya va folklorshunoslik nazariyalarini ilmiy tahlil etishda tarixiy va qiyosiy metodlarni

---

<sup>2</sup>Тайлор Э. Первобытная культура. – М.: Наука, 1989. – 611 с.

<sup>3</sup>Вайц Т. Антропология первобытных народов. Т. 1. О видовом единстве человеческого рода и первобытном состоянии человека. - М.: Издание А.И. Мамонтова, 1867. – С. 9.

<sup>4</sup> Bastian, A. Die Volker des Ostlichen Assien. Jena, 1869, - 170 pp

<sup>5</sup> Вундт В. Проблемы психологии народов / Перевод Н. Самсонова. – М.: Либроком, 2010. – 144 с.

<sup>6</sup>Фрезер, Дж. Золотая ветвь: Исслед. магии и религии. – М.: Политиздат, 1986. – 702 с.; Ўша муаллиф. Фольклор в Ветхом завете. – М.: Политиздат. 1989. – 541 с.; Ўша муаллиф. Золотая ветвь. Дополнительный том. Пер. с англ. — М.: «Рефл-бук»; К.: «Ваклер», 1998. - 464 с.; Ўша муаллиф. Золотая ветвь: Исследование магии и религии: В 2 т. Т. 1: Гл. I-XXXIX / Пер. с англ. М. Рыклина. - М.: ТЕРРА - Книжный клуб, 2001. - 528 с.

<sup>7</sup>Тайлор Э.Б. Первобытная культура... – С. 8.

<sup>8</sup> Фрезер Дж.Дж. Золотая ветвь. – М.: Политиздат, 1989. – С. 672-674.

bir-biridan farqlanuvchi usullar sifatida baholagan<sup>9</sup>. Uning fikricha, “tarixiy metod” hodisalarni muayyan xronologik tartib asosida baholaydi hamda yozma va ikonografik materiallardan foydalangan holda hujjatlilikka tayanadi; qiyosiy metod esa zamoniylar va makoniylar jihatdan abstrakt holatda ish ko‘radi hamda og‘zaki manbalarni ham jalb qiladi. “Qiyoslash” deganda muayyan etnofolklor soha, epik syujet, motiv yoki obrazni boshqa xalqlar og‘zaki badiiy ijodi materiallari bilan solishtirib, taqqoslab o‘rganish asosida o‘zaro o‘xshash hamda farqli xususiyatlarni aniqlash nazarda tutiladi<sup>10</sup>. V. Jirmunskiy fikricha, “qiyoslash”ning o‘zi folklorshunoslik metodi bo‘la olmaydi. Chunki metod - ilmiy tadqiqot ishining o‘ziga xos nazariy mezon bo‘lib, u yoki bu ilmiy maktabning qarashlarini o‘zida ifoda etadi. Shuning uchun ham “qiyoslash” nafaqat folkloristik, balki tarixiy yo‘nalishdagi tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan usul sanaladi<sup>11</sup>.

Folklorshunos va etnograf J. Kokkyara fanda “tarixiy-geografik” metodni “geografik-kartografik usul” deb atashni taklif qilgan edi<sup>12</sup>. “Kartografik metod” avval folklorshunoslikda emas, balki etnografik tadqiqotlar amaliyotida qo‘llanilgan. Masalan, etnografik tadqiqotlar olib borishda o‘rganilayotgan mavzular bo‘yicha tayyorlangan so‘rovnomalar, anketalar, savolnomalardan foydalanish hamda muayyan etnofolkloriy hodisaning tarqalish doirasi va qayd qilinish darajasini kartografiya usulida aniqlash tajribasi ilk marotaba Fridrix Ratsel<sup>13</sup> tomonidan qo‘llanilgan. Etnografiya va folklorshunoslik fanlaridagi “geografik-kartografik metod” yoki “kartografik metod”ning yuzaga kelishiga Arnold Van Gennepingning tadqiqotlari asos bo‘lgan<sup>14</sup>.

Dissertant fikricha, tadqiqot jarayonida “kartografik metod” dan foydalanishning afzallik jihati tadqiqot natijalarining aniqligi va dalillarning ishonarliligidir. Ushbu metod o‘rganilayotgan hodisaning mavjudligi yoki yo‘qolib borayotganligini ko‘rsatuvchi barcha elementlarni to‘la qamrab olish imkonini beradi. Kartografik metod etnograf va folklorshunos olimlar tomonidan o‘rganilayotgan syujet, motiv, udum va e‘tiqodiy qarashlarning barcha elementlari: ijro holati, tarqalish doirasi, hududiy o‘ziga xosligi va lokal farqlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Etnografiya va folklorshunoslik fanlariga aloqador asarlarni ilmiy tadqiq etishning samarali metodlaridan biri “qiyosiy-tipologik metod” hisoblanadi. X.M. va N.K.Chadviklar fikricha, turli xalqlar etnografiya va folklorshunosligidagi tipologik aloqadorlik masalalari“ etnofolklor an‘analarning parallel

---

<sup>9</sup>Геннеп А. Ван. Обряды перехода. Систематическое изучение обрядов. М: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 1999. - 198 с.

<sup>10</sup>Жирмунский В.М. Народный героический эпос. – М. – Л., 1962. – С. 5-74; Ўшамуаллиф. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. – Л., 1979.

<sup>11</sup>Жирмунский В.М. Эпические творчество славянских народов и проблемы сравнительного изучения эпоса. – М.: Наука, 1958. – С.6-7.

<sup>12</sup>Коккьяра Дж. История фольклористики в Европе. - М.: Изд-во иностранной литературы, 1960. – С. 399.

<sup>13</sup>РатцельФ. Геополитика: хрестоматия / [Ф. Ратцель, Ф. Науманн, К. Шмитт и др.] ; [сост. Б.А. Исаев]. - СПб. : Питер, 2007. - 512 с.

<sup>14</sup>Геннеп А. Ван. Обряды перехода. Систематическоеизучениеобрядов... - 198 с.

rivoji”<sup>15</sup>hamda “tur mush tarzi va ijtimoiy-siyosiy sharoitlarning o‘xshashligi”<sup>16</sup> natijasida yuzaga keladi. Evropa xalqlari eposida aks etgan etnofolklor syujet va motivlarni turkiy va mo‘g‘ul xalqlari etnografiya va folklorshunosligi bilan qiyoslab o‘rgangan G.N.Potantin tipologik aloqalarni tizim sifatida tahlil qilish muhim nazariy xulosalar chiqarishga asos bo‘lishini ta’kidlab o‘tgan edi<sup>17</sup>.

Epos shunos V.M.Jirmunskiy o‘zining g‘arb va sharq xalqlarining etnofolkloriy xususiyatlarining qiyosiy tadqiqiga oid ilmiy asarlarida milliy fanlararo aloqalarning tarixiy ildizlarini siyosiy-iqtisodiy taraqqiyotning mushtarakligiga bog‘lab o‘rgangan. U o‘zigacha bo‘lgan etnograf va folklorshunoslarning ijodiy tajribalarini umumlashtirgan holda yangi bir yo‘nalish – «sistemali-tipologik» aloqalar nazariyasini yaratdi<sup>18</sup>.

Yuqorida qayd etilgan metodologik nazariyalar etnologiya va folklor fanlarining aloqadorlik jihatlarini o‘rganuvchi soha etnofolkloristika yo‘nalishining ob‘ekti bo‘yicha quyidagi ilmiy nazariy xulosalarni beradi:

- etnofolkloristika - xalq og‘zaki ijodiyoti namunalarida aks etgan ma’lumotlarning muhim etnografik manba sifatidagi ahamiyatini o‘rganish, etnologiya fanida folklor materiallarini tadqiq etishning nazariy-metodologik xususiyatlariga doir mezonlarni asoslab beradi;

- etnofolkloristika - etnofolklor materiallarning etnografik xususiyatlari, ularning tadqiqot doiralari va aniq o‘rganish chegaralarini belgilaydi, xalq dostonlarini o‘rganishda “etnografik fakt” tushunchasini izohlash metodlari, etnologiya fanining folklor bilan bog‘liqlik mohiyati va o‘ziga xos konfiguratsiyaviy xususiyatlarini tahlil qiladi;

- etnofolkloristika-folklor materiallarida aks etgan xalqlarning etnik tarixi, etnomadaniyat va etnik xususiyatlarga doir etnografik motivlarni tarixiy voqeliklar bilan qiyosiy o‘rganib, ularda aks etgan ma’lumotlarning real tarixiy davri bo‘yicha ilmiy xulosalar beradi;

- etnofolkloristika - ma’lum bir xalqlarning qo‘lyozma manba, hujjat yoki arxeologik yodgorliklarda qayd etilmay qolgan tarixiy-etnik xususiyatlari, o‘tmishdagi ijtimoiy-maishiy turmushi, diniy e’tiqodlari, ijtimoiy psixologiyasi, moddiy madaniyatiga oid qimmatli ma’lumotlarni o‘zida aks ettirgan folklor materiallarini etnologiya fani metodologiyasi negizida tadqiq etadi;

- etnofolkloristika - folklor materiallarida xalq tur mush tarzi, urug‘-qavmlarning o‘zoq o‘tmishda va hozirda yashayotgan geografik-hududiy joylashuvi, ularning oilaviy-maishiy marosimlari, shuningdek, xo‘jalik-madaniy tiplariga oid ma’lumotlarning aks etish jarayonini aniqlaydi.

Dissertatsiyaning “*Mavzu tarixshunosligi*” nomli ikkinchi paragrafida mavzu doirasidagi tadqiqotlar tahlilga tortilgan.

---

<sup>15</sup> Chadwick H.M. and N.K. The Growth of Literature. 3 vols. Cambridge, 1932, p.XIII.

<sup>16</sup> Chadwick H.M. and N.K. The Growth of Literature...p.IX.

<sup>17</sup>Бухақдақаранг: Потанин Г.Н. Восточные мотивы в средневековом европейском эпосе. М., 1883.

<sup>18</sup>Қаранг: Жирмунский В.М. Народный героический эпос... - С.5-74; Ўша муаллиф. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. Л., 1979.

O‘zbek xalqining etnik xususiyatlari, milliy qadriyat va an‘analari, urf-odat, rasm-rusumlarining xalq dostonlarida aks etish jarayonlarini 1) sovet davridagi tadqiqotlar, 2) O‘zbekiston mustaqilligi yillarida yaratilgan asarlar, 3) xorijiy olimlarning ilmiy ishlari kabi guruhlariga bo‘lib o‘rganilgan.

Sovet davri o‘zbek xalq dostonlarini to‘plash va o‘rganish borasida jiddiy yutuqlar qo‘lga kiritdi. Jumladan, V.M.Jirmunskiy<sup>19</sup>, H.Zarifov<sup>20</sup>, B.A.Karriev<sup>21</sup>, T.Mirzaev<sup>22</sup>, M.Murodov<sup>23</sup>, X.Ko‘ro‘g‘li<sup>24</sup>, O.Sobirov<sup>25</sup>, J.Xoshniyozov<sup>26</sup>, A.Qahhorov<sup>27</sup>, M.Murodov<sup>28</sup>, B.Sarimsoqov<sup>29</sup>, N. Qurbonova<sup>30</sup>, V.Sokolova<sup>31</sup>, B.Putilov<sup>32</sup>, I.Moldaboev<sup>33</sup>, R.Qidirbaeva<sup>34</sup> kabi olimlarning xalq dostonlarini tadqiq etishga qaratilgan ishlarida o‘rganayotgan mavzuga yaqin ayrim masalalar tahlilga tortilgan edi.

O‘zbekiston mustaqilligi yillarida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Alpomish» dostoni yaratilganligining 1000 yilligi

<sup>19</sup> Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. - М.: Полиграфкнига, 1947. - С. 520; Ўша муаллиф. Вопросы генезиса и истории эпического сказания об Алпамыше. - сб.: «Об эпосе Алпамыше», - Т., 1959. - 28 с.; Ўша муаллиф. Народный героический эпос. - М.-Л.: Гослитиздат, 1962. - 435 с.; Ўша муаллиф. Книга моего деда Коркуда. - М.-Л.: Изд-во Акад. наук СССР, 1962. - 299 с.; Сказание об Алпамыше богатырская сказка. - М.: Изд-во «Восточный литературы», 1964. - С. 335; Ўша муаллиф. Среднеазиатский народные сказители. - М.: «Наука», 1964. - С. 13; Ўша муаллиф. Тюркский героический эпос. - Л.: Наука, 1974. - С. 727;

<sup>20</sup> Зарифов Х. 1916 йил миллий озодлик кўзголонининг ўзбек фольклориди акс этиши // Шарқ юлдузи, 1946. № 7,8. - Б. 154-166; Яна ўша. К изучения узбекского народного эпоса // Вопросы изучения эпоса народов СССР. - М., 1958. - С. 168.

<sup>21</sup> Карриев Б.А. Эпическесказания о Кер-оглы у тюркоязычныхнародов. - М.: Наука, 1968. -С.9-44.

<sup>22</sup> Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари. - Т.: Фан, 1968. - Б. 170; Яна ўша. «Очилдов» достони хакида //Ўзбек совет фольклори масалалари. - Б. 107-111; Яна ўша. Халқ бахшиларининг эпик репертуари. - Т.: Фан, 1979. - Б. 151.

<sup>23</sup> Мурадов М. Эпос «Гор-оглы» - сокровищница души и чаяний народа. - Тошкент: Ўзбекистон, 1990. - 28.

<sup>24</sup> Короглы Х.Г. Трансформация заимствованного сюжета / Фольклор: поэтическая система. - М.: Наука, 1977. - С. 106-125.

<sup>25</sup> Собиров О. Келиной достони хакида. «Ёзи билан Зебо», «Келиной». - Т.: 1962. - Б. 66.

<sup>26</sup> Хошниязов Ж. Историко-фольклорная характеристика каракалпакской версии эпоса «Алпамыс». - Нукус, 1978. - С. 193.

<sup>27</sup> Қахҳоров А. «Келиной» туркуми достонларининг ўзига хос хусусиятлари: Филол. фанлари номз... дисс.: - Т., 1972. - Б. 177; Яна ўша. Янги достонлар: (Қашқадарё ва Сурхондарё халқ бахшилари репертуарлари асосида). - Т.: Фан, 1985. - Б. 75.

<sup>28</sup> Муродов М. Ижод дурдоналарини излаб. - Т.: Фан, 1967. - Б. 66; Яна ўша. Сарчашмадан томчилар. -Т.: Гафур Ғуллом, 1984. - Б. 144; Яна ўша. Эпос «Гор-оглы» сокровищница души и чаяний народа. - Т.: Узбекистан, I, 1990. - С. 149.

<sup>29</sup> Саримсоков Б. Ўзбек маросим фольклори. - Т.: Фан, 1986. - Б. 213.

<sup>30</sup> Курбонова Н. Ўзбек болалар маросим фольклори: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. - Тошкент, 1994;

<sup>31</sup> Соколова В. Славянский фольклор. - М.: Изд-во Акад. наук СССР, 1951. - С. 363; Ўша муаллиф. Русское народно-поэтическое творчество. - М.: Изд-во Акад. наук СССР, 1953. - С. 224; Ўша муаллиф. Алтайские героический эпос. - М.: Наука, 1985. - С. 256; Ўша муаллиф. Традиции и современность в фольклоре. - М.: Наука, 1988. - С. 211.

<sup>32</sup> Путилов Б. Принципы текстологического изучения фольклора. - М.-Л., Наука, 1966. - Б. 305; Ўша муаллиф. Русский и южнославянский героический эпос. - М.: Наука, 1971. - С. 315; Ўша муаллиф. Методология сравнительно-исторического изучения фольклора. - Л.: Наука, 1976. - С. 244; Ўша муаллиф. Героический эпос и действительность. - Л.: Наука, 1988. - Б. 233.

<sup>33</sup> Молдобаев И. Эпос «Жаныш и Байыш» как историко-этнографический источник. - Фрунзе, Илим, 1983. - С. 169; Ўша муаллиф. Отражение этнических связей киргизов в эпосе «Манас». - Фрунзе, Илим, 1985; - С. 110; Ўша муаллиф. Эпос «Манас» как источник изучения духовной-культуры киргизского народа. - Фрунзе, Илим, 1989. - С. 148.

<sup>34</sup> Кыдырбаева Р. Генезис эпоса «Манаса». - Фрунзе, Илим, 1980. - С. 279; Ўша муаллиф. Варианты эпоса «Манас», - Фрунзе, Илим, 1988. - С. 159.

to'g'risida»gi qarori bu sohada qilinishi kerak bo'lgan ilmiy izlanishlar uchun yo'l ochib berdi. Jumladan, mustaqillik davrida yaratilgan M.Murodov va A.Ergashev<sup>35</sup>, M.Jo'raev<sup>36</sup>, J.Eshonqul<sup>37</sup>, O.Madaev<sup>38</sup>, SH. Turdimov<sup>39</sup>, S. Davlatov<sup>40</sup>, N. Quranboeva<sup>41</sup>, O. Ismonova<sup>42</sup>, L. Xudayqulova<sup>43</sup>, F. Nurmanov<sup>44</sup>, larning ilmiy risola va maqolalarida xalq dostonlaridagi etnografik lavhalar tahlil etilgan.

XXI asr boshlarida janubiy mintaqa vohalari aholisi etnografik qiyofasi va xalq baxshichilik an'analari tarixiga oid ba'zi bir asarlar yaratilgan. Masalan, elshunos olimlar S. Tursunov, T. Parдаev, N. Tursunova, B. Murtozaev, G. Ahmedova, O. Begimqulov, N. Mahmadiyoro'va, F. YOrmatov, M. Godoyshoev, X. Xidirov, M. Turo'pova, A. Tursunov<sup>45</sup> tadqiqotlari shular jumlasidandir.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'zbek xalq dostonlariga oid ma'lumotlarni yig'ish, tartiblashtirish va ilmiy tadqiq qilish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. O'zbek xalq dostonlarining etnografik jihatdan dolzarb muammolari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan xorijiy tarixchi va etnograf sayyoh G.Vamberi<sup>46</sup>, K.Lamont<sup>47</sup>, N.CHadvig<sup>48</sup>, I.SHax<sup>49</sup>, X.Paksoy<sup>50</sup>,

---

<sup>35</sup>Murodov M., Ergashev A. Alpomishno'ma (1) (Suxxonдарёталқини. – Т.: Мехнат, 1999. – Б. 485.

<sup>36</sup>Жўраев М. Сехрли рақамлар сири. – Т.: Ўзбекистон, 1991; Яна ўша. “Келин тушди” маросими. – Т.: Республика халқ ижодиёти маркази, 2002; Яна ўша. Соч магияси ва у билан боғлиқ маросимлар // Ўзбекистон этнологияси: янгича қарашлар ва назарий методологик ёндашувлар. – Т.: 2004. – Б. 190-198; Яна ўша. Миф, фольклор ва адабиёт. – Т.: Фан, 2006.

<sup>37</sup>Жаббор Э. Фольклор: образ ва талқин. - Қарши. Насаф, 1999. – Б. 172.

<sup>38</sup>Мадаев О. «Алпомиш» билан суҳбат. - Т.: Маънавият, 1999. – Б. 80.

<sup>39</sup>Турдимов Ш. “Гўрўғли” достонининг генезиси ва тажрижий босқичлари. – Т.: Фан, 2011. – 320 б; Турдимов Ш., Эшонқулов Ж. Навруз нашидаси. Тадқиқот мажмуа. (Ж. Эшонқулов билан ҳамкорликда). – Т.: Фан, 2009. – 260 б.

<sup>40</sup>Давлатов С. Қашқадарё воҳаси ўзбек тўй маросимлари фольклори: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1996. - Б.13-18.

<sup>41</sup>Куронбоева Н.Р. Хоразм тўй кўшиқлари: Филол. фанлари номз. дисс. автореф. – Тошкент, 1998.

<sup>42</sup>Исмонова О. Ўзбек тўй маросим фольклорида «келин салом» жанри (генезиси, ўзига хос хусусиятлари ва поэтикаси): Филол. фанлари номз. дисс. - Тошкент, 1999.

<sup>43</sup>Худайкулова Л. Сарчашмадан томган инжулар (Сурхон воҳаси ўзбек халқ кўшиқлари). Тўплаб, нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Л. Худайкулова. – Т.: Фан, 2007. 4,6 б.т; Яна ўша: Маросимнома (ўзбек халқининг урф-одат ва маросимлари ҳақида қисқача маълумотнома). – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. 20 б.т. (М.Жўраев билан ҳамкорликда).

<sup>44</sup>Нурманов Ф. Хизр образининг генезиси ва унинг ўзбек фольклоридаги талқини. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация автореферати. – Т., 2007, - 20 б.

<sup>45</sup>Турсунов С., Пардаев Т., Махмадиёрова Н. Сурхондарё – этнографик макон. – Т.: “Академнашр”, 2012. -232 б; Турсунов С., Пардаев Т., Турсунова Н., Муртозаев Б. Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёти тарихи. – Т.: “Тафаккур”, 2015. – 304 б; Турсунов С., Пардаев Т., Бегимқулов О. Ўзбек миллий кураши: тарихи ва аънавалари. – Термиз: “Сурхон нашр”, 2015. – 204 б; Турсунов С. Сурхондарё этнографияси. – Т.: “Тафаккур”, 2020. – 208 б; Турсунов С., Ёрматов Ф., Годойшоев М., Хидиров Х., Туро'пова М., Турсунов А. Сурхондарё вилояти туризм салоҳияти. – Т.: “Тафаккур”, 2020. – 120 б; Турсунов С., Ахмедова Г. Миллий халқ оғзаки ижодида бахшичилик санъатининг юксалиши. – Т.: “Тафаккур”, 2021. – 228 б.

<sup>46</sup>Vambery G. Sketches of Central Asia. –London, 1868. – P. 275; Vambery G. On Uzbek Epos Journal of Royal Asiatic Society N. S. XII, London, 1988. – P. 375.

<sup>47</sup>Lamont K. The Peoples of the Soviet Union. – New-York. 1946. – P. 237.

<sup>48</sup>Chadwick N. K. Oral Epic of Central Asia. - London, 1969. – P. 284.

<sup>49</sup>Shah I. Folk Tales of Central Asia, London 1975. – P. 320.

<sup>50</sup>Paksoy H.B. Alpamysh: Central Asian Identity under Russian Rule, USA. AACAR, 1989. – P. 327.

T.Zarkon<sup>51</sup>, As-Safsafiy Ahmad al-Katoriy<sup>52</sup>, M.Pitersen, Mark va Greta Slobin, M.Dikkens, R.Abazov, D.Kandiyoti, M.Lou<sup>53</sup>, S.Fedakar<sup>54</sup> kabi turk olimlari<sup>55</sup> asarlarida ham keltirib o‘tilgan. Hozirgi vaqtda ham xorijiy mamlakatlar tadqiqotchi - olimlari o‘zbek xalq qahramonlik eposi “Alpomish” dostoni genezisi va syujet xilma-xilligi nuqtai-nazaridan bir qancha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelmoqda. Masalan, koreyalik O. Ingyong ilmiy ishlari<sup>56</sup> shular jumlasidandir. Mazkur ishda asosan, o‘zbek va koreys eposining o‘rganilish tarixi, “Alpomish” va “Jumo‘ng” dostonlari asosiy motivlarining qiyosiy tahlili va qadimgi shomon folklori va epos genezisi bilan bog‘liq etnofolkloriy jihatlar tahlilga tortiladi.

*Dissertatsiyaning birinchi bobi xulosasi shuki*, o‘rganilgan tadqiqot etnografiya va folklor fanlarini o‘zaro qiyosiy tadqiq etishda qiyosiy-etnografik, tarixiy-qiyosiy, kartografik va qiyosiy-tipologik metodlariga asoslanildi. Etnologiya fani aspektida etnografiya va folklorning o‘zaro aloqadorlik prinsiplarini asoslovchi etnofolkloristikayo‘nalishi mazmunan dostonlarning tarixiy-etnografik xususiyatlarini etnologik yoritish, xalq dostonlarda aks etgan etnik aloqalar, bolalik davri, nikoh munosabatlari, e‘tiqodlar, chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik kasb korlari bilan bog‘liq etnografik ma‘lumotlar ilmiy iste‘molga olib kirildi. Mavzu doirasida zikr etilgan adabiyotlar esa o‘z mavzulari doirasidagi tadqiqot hisoblanib, ulardagi fikrlar folklorshunoslik jihatdangina bayon etilgan, xolos.

**“Xalq dostonlarida etnoslararo munosabatlar va etnonimlarning aks etishi”** deb nomlangan dissertatsiyaning ikkinchi bobida xalq dostonlarining tarixiy-etnografik xususiyatlari va ularda aks etgan etnik aspektlar bilan bog‘liq etnografik materiallar yoritib berilgan.

*Ikkinchi bobning “Dostonlar etnografik manba sifatida”* deb nomlangan birinchi paragrafida xalq dostonlarining tarixiy-etnografik jihatlarini etnologik xarakterdagi ilmiy materiallar asosida tahlil etilgan.

---

<sup>51</sup>Zarkon T. «Бахши-шоир, шомон ва табиб» // «Алпомиш» дostonи ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзуидаги халқаро конференция материаллари. – Т.: Фан, 1999. – Б. 20.

<sup>52</sup>Ас-Сафсафий Аҳмад ал-Каторий // «Алпомиш» дostonи ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзуидаги халқаро конференция материаллари. – Т.: Фан, 1999. – Б. 21-24.

<sup>53</sup>Pitersen M. A Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Т.: Qatortol-Kamolot, 2000. – 180 p.; www.google.ru Mark and Greta. Slobin (Middletown: Wesleyan University Press, 1975)258-59; Abazov R.Culture and Customs of the Central Asian Republics. – London: Greenwood Press. Westport, Connecticut. 2007. – 325 p.; Kandiyoti D. and Azimova N.The communal and the sacred: women’s worlds of ritual in Uzbekistan // The Journal of the Royal Anthropological Institute. Royal Anthropological Institute of Great Britain and Ireland, 2004. –Vol.10, No.2. – pp. 327-349.; Louw M.E. Everyday Islam in Post-Soviet CentralAsia. – USA.: Routledge, 2007. – 208 p.

<sup>54</sup> Fedakar S. The epic of Alpamish and the book of Dede Korkut // «Алпомиш» дostonи ва жаҳон халқлари эпик ижодиёти» мавзуидаги халқаро конференция материаллари. – Т.: «Фан», 1999. – Б. 38-39.

<sup>55</sup> Қаранг: Кóprülü Fuad. Türk Edebiyeti tarihi. – Ankara: Akçağ, 2003; Ekici, Metin. Türk dünyasında Köroglu. – Ankara: Akçağ, 2004.

<sup>56</sup> Ингён О. “Алпомиш” ва “Жумўнг” дostonларининг қиёсий типологияси. Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Т.: 2014. – 316.

Dissertant ishda «Alpomish» dostoni (Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li<sup>57</sup>, Berdi baxshi<sup>58</sup>, Murod Otaboy o‘g‘li<sup>59</sup>, Abdulla shoir<sup>60</sup>, Saidmurod Panoh o‘g‘li<sup>61</sup>, Umir shoir<sup>62</sup>, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li<sup>63</sup>, Mamadrayim baxshi<sup>64</sup>, Zohir Qo‘chqor o‘g‘li<sup>65</sup> va boshqa variantlar) da tasvirlangan o‘zbek xalqining etnos sifatida shakllanishi, ularning ilk o‘rta asarlarda yashagan muhit va davri, tabiiy-geografik va ijtimoiy-siyosiy vaziyati, ayrim voqealar va obrazlar, etnonimlar va etnotoponimlar tarixiy-etnografik jihatdan ancha aniq, haqqoniy bo‘lib, dostonning tarixiy-etnografik manba sifatida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tgan.

Tadqiqot davomida o‘rganilgan “Yozi bilan Zebo” dostonining Farg‘ona vodiysi variantlari 1926 yil Namanganlik Rafiq Mo‘min tomonidan Andijonlik Yormat bobodan “Zevak” (“Zebixon”) nomi bilan yozib olingan<sup>66</sup>. Mazkur doston varianti O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Til va adabiyot instituti folklor sektori arxivida saqlanadi<sup>67</sup>. Folklorshunos O. Sobirov “Yozi bilan Zebo” dostonining yig‘ma matnini 1957 yilda nashrga tayyorladi va Sharq yulduzi jurnalida nashr qildirdi<sup>68</sup>. Olim tomonidan “Yozi bilan Zebo” dostonining Yangiqo‘rg‘on va Namangan tumanlarida keng tarqalganligi aniqlanib, dostonning Namangan versiya va variantlari yozib olindi<sup>69</sup>.

Dissertant Farg‘ona vodiysining bu doston tarqalgan tumanlarida ish vaqtida, ko‘proq sholi o‘tog‘i davrida, keyinchalik esa Katta Farg‘ona kanali va shimoliy Farg‘ona kanali kabi xalq inshootlari qurilishlarida ham mehnatni

---

<sup>57</sup>ЎЗР ФА Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв. № 18.

<sup>58</sup>Ўшажойда. Инв. № 46.

<sup>59</sup>Ўшажойда. Инв. № 1439.

<sup>60</sup>Ўшажойда. Инв. № 1217.

<sup>61</sup>Ўшажойда. Инв. № 733, 847

<sup>62</sup>Ўшажойда. Инв. № 1254.

<sup>63</sup>Ўшажойда. Инв. № 191.

<sup>64</sup>Ўшажойда. Инв. № 1466.

<sup>65</sup>Ўшажойда. Инв. № 1220.

<sup>66</sup>Ғозибоев Т. Ёзи билан Зебо дostonининг Наманган вариантлари (Қаранг: XX ўзбек фольклоршунослиги. Антология. (Масъул муҳаррир Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими, филология фанлари доктори, профессор М. Жўраев). – Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 137-148).

<sup>67</sup> “Зевак” (“Зebixon”) дostonи. Ёзиб олувчи Рафиқ Мўмин, 1926 йил, инв. № 725.

<sup>68</sup> “Ёзи билан Зебо” // Шарқ юлдузи. –Тошкент, 1957. – 4-сон, 1957 йил, 93-120-бетлар. Шу журналда кўрсатилишича, бу матн О. Собиров томонидан дostonнинг Ўроқ Расулов, Мамашариф Эшмуродов ва Худойкул шоир Яхшиевлардан ёзиб олинган вариантлари асосида нашрга тайёрланган.

<sup>69</sup> “Ёзи Билан Зебо” (айтувчи Ҳожиакбар Кўчумов, Бирлашган кишлоқ фуқаролар йиғинининг Бекобод кишлоғидан), 1961 йил, март; б) “Ёзи билан Зебо” (айтувчи Олимбой Сойиббоев, Бирлашган кишлоқ фуқаролар йиғинининг Хўжашўркент кишлоғидан), 1961 йил, апрель; в) “Ёзи билан Зебо” (айтувчи Абдулла қори Худоёров, Ўнҳаят кишлоқ фуқаролар йиғинининг Файзиобод кишлоғидан), 1962 йил, апрель; г) “Ёзи билан Зебо” (айтувчи Ёқуббой ака, Ёрқўрғон кишлоғидан, ёзиб олувчи Ёқуббоев Икромжон), 1962 йил д) “Ёзи билан Зебо” (айтувчи Адаш полвон, Ёрқўрғон кишлоғидан), 1962 йил, апрель; е) “Ёзи билан Зебо” (айтувчи Холмирза Худойберганов, Ёрқўрғон кишлоғидаги 80-мактаб қоровули), 1962 йил, апрель; ж) “Ёзи билан Зебо” (айтувчи Шерзода (Дехқонбой Бахрамов), Ўнҳаят кишлоғидан), 1963 йил, май; з) “Ёзи билан Зебо” (айтувчи Отавали Усмонов, Наманган туманидаги Хонобод кишлоғидан), 1962-63 йиллар; и) “Ёзи бува” (айтувчи Маманазар Исроилов, Наманган туманидаги Катта Тошбулоқ кишлоғидан, 1963 йил июль) ва бошқалар (Қаранг: XX ўзбек фольклоршунослиги. Антология. (Масъул муҳаррир Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган маданият ходими, филология фанлари доктори, профессор М. Жўраев). – Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2017. – Б. 138).

engillashtirish maqsadida bevosita mehnat jarayonida, Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida esa, asosan, qo‘sh haydagan pallada yoki g‘alla o‘rish davrida ijro etilganligiga alohida urg‘u berib o‘tadi. “Yozi bilan Zebo” dostoni XVIII-XIX asrlarda dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar tarzida shakllana boshlagan. Dostonning Rahimovlar varianti<sup>70</sup> mukammal syujet motivi (xo‘jalik-tiplari bilan bog‘liq odatlar)ga ega bo‘lgan shakli hisoblanadi.

Dissertatsiyada shuningdek, «Go‘ro‘g‘li» turkum dostonlarining (Qo‘rg‘on versiyasi (Po‘lkan shoir varianti)<sup>71</sup>, Egamberdi Ollobergan o‘g‘li varianti<sup>72</sup>, (Fozil shoir versiyasi, Laqay versiyasi, Tosh shoir versiyasi, Namangan versiyasi)<sup>73</sup>, Rahmatulla shoir varianti<sup>74</sup>, Haydar ota Boychaev varianti<sup>75</sup>, Amin Malik o‘g‘li versiyasi<sup>76</sup>, Xorazm versiyasi<sup>77</sup>, turkman «Go‘ro‘g‘li»si: Moskva<sup>78</sup>, Ashgabat<sup>79</sup> nashrlari, qozoq «Korug‘ly»si<sup>80</sup>) versiya va variantlari tarixiy-etnografik jihatdan tahlilga tortilgan. Doston qahramonlari va uni ijro etgan, kuylagan Qo‘rg‘on va Xorazm dostonchilarining asosini tashkil etuvchi baxshilarning etnik xususiyatlari, Xizr va chiltan obrazlarining bugungi etnografik talqini va ot – Firko‘k obrazi ifodasi haqiqiy, real ot sifatleri kabi etnografik motivlar tadqiq etilgan<sup>81</sup>.

*Ikkinchi bobning “Dostonlarda etnoslararo munosabatlar masalasi”* deb nomlangan ikkinchi paragrafida dostonda aks etgan qo‘ng‘irotlarning urug‘-qabilaviy munosabatlari, qalmoqlar va ularning qo‘ng‘irotlar bilan o‘zaro aloqalari xususidagi etnografik motivlar tahlil etilgan.

Masalan, dissertant «Alpomish» dostonining Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida epik qahramon mansub subetnik guruh «o‘n olti urug‘ qo‘ng‘irot» deb aniq ko‘rsatiladi deb ta’kidlaydi.

O‘n olturug‘ Boysun-Qo‘ng‘irot elida,  
Ilgarida paydo bo‘ldi Dovonbiy,  
Dovonbiydan paydo bo‘lgan Olpinbiy,

<sup>70</sup> “Ёзи билан Зебо” дostonи, қўлёзма, айтувчи Қодир ва Қаҳҳор бахши Раҳимовлар. Ёзиб олувчи А. Эргашев. Қарши ДУ архиви инв. № 16. 1-саҳифа

<sup>71</sup> Гўрўғлининг туғилиши / Айтувчи Муҳаммад Жомрод ўғли Пўлкан. Нашрга тайёрловчи: М.Муродов. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1967.

<sup>72</sup> ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв № 1461.

<sup>73</sup> Қаранг: ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв №257; ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв № 555; ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв №1459; ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв №1085. Папка №79.

<sup>74</sup> Гўрўғли / Айтувчи Раҳматулла Юсуф ўғли / Нашрга тайёрловчи Т. Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 409-428.

<sup>75</sup> ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв №1170.

<sup>76</sup> ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв №1515.

<sup>77</sup> Гўрўғли. Хоразмдostonлари / Нашрга тайёрловчилар: С.Рўзимбоев, Х.Рўзимбоев, Г.Эшжонова. – Ургенч: Хоразм, 2004.

<sup>78</sup> Гер-оглы. Туркменский героический эпос. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1983.

<sup>79</sup> Гороглы. Туркмен гахрыманчылык эпосы. – Ашгабат: Туркменистан, 1990.

<sup>80</sup> Короуғлы (Короғлы және онынур пақтары туралы дастандар). – Алматы: Жазушы, 1973.

<sup>81</sup> Зарифов Х. Ўзбек халқ дostonларининг тарихий асослари бўйича текширишлар / Пўлкан шоир. – Тошкент: Фан, 1976. – Б.65 – 89.

### Olpinbiyning o'g'li edi Boybo'ridan Boysari<sup>82</sup>...

Qo'ng'irotlarning qavm boshlig'i Qo'ng'ir-ota va uning katta xotinidan tug'ilgan to'rt o'g'il (Vaxtamg'ali, Qo'shtamg'ali, Qanjig'ali va Aynnli) hamda kichik xotinidan bo'lgan beshinchi o'g'il (Tortuvli) ga borib taqaladi. Demak; 1) «vaxtamg'ali» («o'n sakkiz ota vaxtamg'ali»); 2) «qo'shtamg'ali» («o'n olti ota qo'shtamg'ali»); 3) «qanjig'ali» («o'n to'rt ota qanjig'ali»); 4) «aynnli» («o'n ikki ota aynli»); 5) «tortuvli» («olti ota tortuvli»)<sup>83</sup>. Demak, dostonda aks etgan Alpomish va uning qarindoshlari qo'ng'irost subetnosining qo'shtamg'ali urug'iga mansub ekanligi ma'lum bo'lmoqda.

Qalmoqlar chorvador xalq bo'lib<sup>84</sup>, ularning hukmdorlari «tayshi» («toychaxon») unvoni bilan yuritilgan<sup>85</sup>. Tarixdan ma'lumki, Chingizxon avlodidan bo'lgan xonlar «taychji» (xitoy tilidagi «tay - szы» - «shahzoda» so'zidan) unvonini qabul qilgan va «qalmoq» hukmdorlari ham o'zlarini ushbu unvon bilan sharaflashni lozim topishgan<sup>86</sup> (Masalan, Esen-taychji, Amasanchji va boshq). Demak, dostonda keltirilgan «Toychaxon» nomi tarixiy asarlarda qayd etilgan atama bo'lib, bu nomni hukmdor nomi emas, balki, qalmoq hoqonlariga berilgan unvon sifatida tushunmoq haqiqatga yaqinroqdir.

Alpomish» dostonining barcha variantlarida Boysari bilan qo'ng'irost subetnosining bir qismi qalmoq eliga borishi va bu ikki urug' o'rtasidagi munosabatlar tasvirlanadi. Dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li<sup>87</sup>, Berdi baxshi<sup>88</sup>, Murod Otaboy o'g'li<sup>89</sup>, Abdulla shoir<sup>90</sup>, Saidmurod Panoh o'g'li<sup>91</sup>, Umir shoir<sup>92</sup> variantlarida tasvirlanishicha, ko'chgan el boylarining mollari qalmoqlarning ekinlarini eb ketadi. Dostonda bu voqea Chorvador xalqning ekinni bilmaganligi, uni o't deb hisoblaganligi bilan izohlanadi. Buni Qalmoqshoh ham to'g'ri tushunadi. Bu voqealar qalmoqlar bilan qo'ng'irostliklarning to'qnashuviga sabab bo'lmaydi. Bekmurod Jo'raboy o'g'li<sup>93</sup>, Mamadrayim baxshi<sup>94</sup>, Zohir Qo'chqor

<sup>82</sup> Мирзаев, Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари... – Б. 68.

<sup>83</sup> Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. - С. 87.

<sup>84</sup> Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высш. школа, 1989; Гумилев А.Н. Древняя Русь и Великая степь. – М.: Мысль, 1989; Ўша муаллиф. Хунну. Срединная Азия в древние времена. М., Изд-во вост. лит., 1960; Бичурин Н.Я. Описание Чжунгарии и Восточного Туркестана в древнем и нынешнем состоянии. - СПб., 1829; Ўша муаллиф. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. - М.–Л.: Изд-во Акад. 1950-1953; Успенский Н. Страна Кукэнол или Цин-хай. - СПб., 1880; Миллер Г. История Сибири. – С. 179-180; Веселовский Н.И. Лекции по истории монголов Изд. Кружка ориенталистов при факультате восточных языков. - СПб., 1909; Потанин Г.Н. Материалы для истории Сибири. Чтения, кн. 1-я, 1867; Гельмерсин Г. Телецкое озеро и телеуты восточного Алтая // Горный журнал. - № 1. - 1840.

<sup>85</sup> Потапов А.П. Очерки по истории Алтайцев – М.: Изд-во. Акад. наук СССР, 1953. - С. 113.

<sup>86</sup> Владимирцов Б.Я. Общественный строй монголов. - М.; Изд-во АН СССР, 1934, - С. 142-156; Миллер Г. История Сибири. - М.–Л., Изд-во Акад. наук СССР, 1937. – С. 317; Титов А. Сибирь в XVII веке. - М.; 1890. – С. 176, 182;

<sup>87</sup> ЎЗР ФА Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв. № 18.

<sup>88</sup> Ўшажойда. Инв. № 46.

<sup>89</sup> Ўшажойда. Инв. № 1439.

<sup>90</sup> Ўшажойда. Инв. № 1217.

<sup>91</sup> Ўшажойда. Инв. № 733, 847.

<sup>92</sup> Ўшажойда. Инв. № 1254.

<sup>93</sup> Ўшажойда. Инв. № 191.

<sup>94</sup> Ўшажойда. Инв. № 1466.

o'g'li<sup>95</sup> variantlarida esa ekin bilan bog'liq lavhalar umuman yo'qdir. Dostonning bu variantlarida qalmoqlar bilan qo'ng'irotlar o'rtasidagi kelishmovchilikka Barchin sababchi qilib ko'rsatiladi<sup>96</sup>.

*Ikkinchi bob "Etnonimik parallellarning dostonlardagi talqini"* deb nomlangan uchinchi paragrafida "Manas" dostoni variantlaridagi umumturkiy xalqlar etnik tarkibi bilan bog'liq etnonimlar, ular o'rtasidagi o'zaro etnomadaniy paralellar xususida to'xtalib o'tilgan.

Dissertant "Manas" eposida o'zbeklarniki bilan mos keluvchi va XX asrning boshlaridayoq ularning etnik tarkibida mavjud bo'lgan, yigirmadan ortiq etnonimlar nomini aniqlashga muyaassar bo'lgan. Masalan: abak (abaklar)<sup>97</sup>, olchin, arg'un, dalba (dolbalar), derben (derbenlar), jediger (jadiger), ichki (echki), kalcha (xalcha), kangы (qangli), qoraqalpoq, qatag'on, qo'ng'irot, qurama, kuntu, qizilbosh, qirg'iz, mang'it, nayman, nog'oy (no'g'ay), sarayman (saroy), sart, tarak (taroqli), tatala (tat), turk, chorkalla<sup>98</sup> shular jumlasidandir.

*Dissertatsiyaning ikkinchi bobi xulosasi shuki*, "Alpomish", "Go'ro'g'li" dostonlari xalqning etnik tarixi, matriarxat va patriarxat davri, ilk nikoh shakllari, xalqlar do'stligi va ijtimoiy muammolarni o'rganishda noyob va qimmatli asar hisoblansa, "Yozi bilan Zebo" dostoni ko'proq o'zida aholining xo'jalik tiplari bilan bog'liq odatlarini aks ettirgan. "Manas" dostoni esa, o'zbek va qirg'iz xalqlari etnonimlari uchun umumiy bo'lgan tahlil bu xalqlarning urug'-qavmchilik tarkibida sezilarli etnonimik parallel, ya'ni etnik aloqalar borligidan darak beradi. «Alpomish» dostonida Boybo'ri, Boysari va Alpomishlar qo'ng'irot subetnosining qo'shtamg'ali urug'iga mansub bo'lgan. Bu erda patriarxal-urug'chilik munosabatlari talqini ustuvorlik qiladi. Dostonda talqin etilgan «qalmoq»lar esa, geografik va lingvistik nuqtai nazardan mo'g'ul qavmlariga yaqin etnos nomidir.

**"O'zbekistonning janubiy hududlari dostonchiligida aholi xo'jalik faoliyatining mahalliy xususiyatlari"** deb nomlangan tadqiqotning uchinchi bobida dostonlarda aks etgan chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik kasb-korlari bilan bog'liq etnografik motivlar ilmiy jihatdan tahlilga tortilgan.

*Uchinchi bobning "Vohalar Chorvador aholisi turmush tarzining dostonlardagi talqini"* nomli birinchi paragrafida dostonlarda chorvachilik bilan bog'liq odatlar etnografik jihatdan tadqiq etilgan.

Qodir baxshi Rahimovning «Yozi bilan Zebo» dostoni chorvador aholining turmush tarzi va mehnat turlarini mukammal talqin etgan badiiy-etnografik asardir. Masalan:

Toshmoqlaring qotibdi-yo, turey-turey,  
Siyrog'ingga botibdi-yo, turey-turey,  
Tushimda-yo bir yigit-a, turey-turey,

<sup>95</sup>Ўшажойда. Инв. № 1220.

<sup>96</sup> Мирзаев Т. «Алпомиш» достонининг ўзбек вариантлари... – Б. 16-39.

<sup>97</sup>Кавс ичида этнонимларнинг ўзбекча номи келтирилади.

<sup>98</sup> Ушбу рўйхат бахши Сотимбой Ўроз ўғли томонидан ёзиб олинган "Манас" варианты ва бурун чоп этилган ўхшаш вариантлардан олинди.

Soy bo'yida yotibdi-yo, turey-turey...<sup>99</sup>

Dostonda talqin etilgan turey-tureylar va chiriy-chiriylarda qo'zi yoki uloqni emizish, shu orqali Cho'pon-otaga atab duolar qilib, ularni asrab qolish niyati ustun turadi. Chorvador aholining turmush tarzi chorva mollari bilan bog'liq bo'lganligi uchun ularning hayotini o'zlarining hayoti bilan bog'lashgan»<sup>100</sup>. Zero, qadimgi davrlardan, ya'ni jonivorlarni qo'lga o'rgatish va xonakilashtirish jarayoni boshlangandan e'tiboran chorvachilik bilan marosimlar va urf-odatlarida elning hayvonot olamiga bo'lgan munosabati aks etgan<sup>101</sup>.

Xalq dostonlarida otlarning chorvador aholi turmush tarzidagi o'rni ta'riflanadi. Jumladan, «Alpomish» dostonining Fozil Yo'ldosh o'g'li variantida keltirilishicha:

Bobo, siru holim ma'lum qilayin,  
Bizdan endi bir bedovni so'rayin,  
Bedov minib qalmoq elga borayin,  
Qalmoq eldan yorim olib kelayin...<sup>102</sup>

Doston parchasida otning chorvador aholi turmush-tarzidagi o'rni, ya'ni biror uzoq manzilga borishda muhim transport vositasi sifatidagi ahamiyati keltirib o'tilgan. Ma'lumki, O'rta Osiyoda yashovchi chorvador qavmlar orasida ot kultining juda keng tarqalganligini ko'plab faktlar tasdiqlaydi. Hatto bir qator yulduzlar, masalan, Oqbo'zot, Ko'kbo'zot yulduzlari haqida miflar ham mavjud<sup>103</sup>. O'zbek xalq dostonlarida Chorvador aholi turmush-tarzida ot kultining mana shu muhim belgisi yaxshi saqlanib qolgan. Masalan, «Alpomish»dagi Boychibor, «Go'rug'li» turkumidagi g'irotda, «Shohnoma»dagi Raxsh ana shunday otlar jumlasiga kiradi. Shuning uchun g'irotda merganlar o'qidan goh qirq gaz yuqoriga sakrab, goh yotib olib Avazni saqlab oladi. Ot kulti va uning insonga homiylik qilishi haqidagi mifologik tasavvurlar bevosita miflar orqali dostonga kirib kelgan.

*Uchinchi bobning "Dostonlarda dehqonchilik kasbiga oid etnografik ma'lumotlar"* deb nomlangan ikkinchi qismida dostonlarda talqin etilgan dehqonchilik bilan bog'liq odatlar etnologik jihatdan tahlil etilgan.

Qodir baxshi Rahimovning «Yozi bilan Zebo» dostoni bevosita mehnat jarayonini ifodalovchi asar bo'lganligi uchun ham dehqonlar shu doston dan parchalarni qo'shiq qilib kuylaganlar<sup>104</sup>. Ish hayvonlariga murojaat, hayvonlar, qushu parrandalar jamiki o'simliklar inson bilan o'zaro aloqada ekanligi, ularning gapirishi, zarur holda qahramonga ko'maklashuvchi homiylik animistik va totemistik qarashlar va tushunchalar bilan bog'liq bo'lib, dostonda bunday o'rinlar ko'p uchraydi. Dostonda epik qahramonlarni tabiat bilan hamkorlikda

<sup>99</sup> Эргашев А., Халилова Д. «Ёзи билан Зебо»... - Б. 44.

<sup>100</sup> Очилов К. Қалдирғочни қўндирган қўшиқ. - Самарқанд, 1992. - Б. 27.

<sup>101</sup> Аширов А. Ўзбек халқининг эътиқод ва маросимлари. - Т.: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007. - Б. 145.

<sup>102</sup> Мирзаев Т. Алпомиш дostonининг ўзбек вариантлари... - Б. 85.

<sup>103</sup> Об эпосе «Алпамыш». Материалы по обсуждению эпоса «Алпамыш» - Т.: Типография Из АН Уз ССР, 1959. - С. 9

<sup>104</sup> Очилов К. Қалдирғочни қўндирган қўшиқ... - Б. 12.

tasvirlash Janubiy O‘zbekiston dostonchiligining o‘ziga xos jihatlaridan biri bo‘lib, bu usul ko‘proq Qodir baxshi va o‘g‘li Qahhor baxshi, Qora va Chori baxshi Umirovlardan yozib olingan dostonlarda o‘z aksini topgan<sup>105</sup>. Bug‘doyni o‘rish ham yanchish vaqtida «ho‘p hayda», «maydayo-mayda», «maydagul» singari an’anaviy termalar ijro etilgan. Bu hayotiy voqelik xalq dostonlarida ham o‘ziga xos tarzda talqin etilgan:

Shohingni qayrab qayirgan maydayo-mayda,  
Tuyog‘ingni mayirgan maydayo-mayda,  
Seni xirmon yanchsin deb maydayo-mayda,  
Bobo dehqon buyurgan maydayo-mayda...<sup>106</sup>

Tadqiqotimiz jarayonida shu narsani ko‘rsatish mumkinki, «Yozi bilan Zebo» dostonining Qodir va Razzoq baxshi variantlarini qiyoslaganda, boshqa hech qaysi variantlarda dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan etnografik ma’lumotlar bu qadar aniq va izchil keltirilmaydi<sup>107</sup>. Dostonda tasvirlangan dehqonchilik bilan bog‘liq udumlardan yana biri «Maydayo-mayda» qo‘shig‘ini aytish an’anasi bo‘lib, bu janr tojiklarda «maydo»,<sup>108</sup> qirg‘izlarda esa «op mayda»<sup>109</sup> terminlari bilan ifodalangan. Keksalarning xotirlashicha, yanchish qo‘shiqlaridagi ilk «maydayo-mayda» dehqonchilik piri Bobodehqonga bag‘ishlangan bo‘lib, ularni yanada g‘ayrat bilan ishlashga ruhlantiradi

*Uchinchi bobning “Hunarmandchilikka doir motivlarning dostonlarda aks etishi”* deb nomlangan uchinchi paragrafida dostonlarda talqin etilgan hunarmandchilik bilan bog‘liq odatlar etnografik aspektda tahlilga tortilgan. Masalan, dostondagi birgina gilam to‘qish<sup>110</sup> lavhasi tasviriga nazar tashlasak, o‘rmak haqida to‘la tasavvurga ega bo‘lamiz. Masalan, dostonda Robiyagul opa xotin-xalajlarni chaqirib, Zeboga atab gilam to‘qish jarayoniga e’tibor qaratamiz:

Uch qoziqni uch tomonga,  
Qoqayotir Yoziyon  
Uch qoziqni biriktirib,,  
Bog‘layotir Yoziyon...<sup>111</sup>

O‘rmak qurish hashar yo‘li bilan amalga oshirilgan uning boshida ko‘pni ko‘rgan obro‘-e’tiborli onaxonlar turishi, yugurib bajariladigan ishlarni esa yoshlar bajarishi ifodalangan. E’tibor bering, bu erda gilam to‘qish odati aniq ko‘rsatib o‘tilgan. Mazkur holatni hududda olib borilgan dala yozuvlari ham tasdiqlaydi. Jumladan, Alpomishova Salqin momoning ta’kidlashicha, oddiy gilam to‘qish uchun uch tomonga uchta uchburchak shaklida qoziq qoqilib, ayollar va qizlar turli xil bo‘yalgan iplarni bir necha marotaba aylanib,

<sup>105</sup>Эргашев А. Қашқадарё-Сурхондарё дostonчилиги... – Б. 106.

<sup>106</sup>Муродов М., Эргашев А. «Алпомишнома» Т. II... – Б. 488.

<sup>107</sup> Халилова Д.Ж. «Ўзи билан Зебо» дostonининг вариантлари ва бадийати. Филол. фанлари. ном. дис. автореф. – Т.: 2004. – Б. 15.

<sup>108</sup>ЭчадиётидағаникииҳолиКулоб. - Сталинобод, 1956. – С. 165; Намунаифольклоридиёри Рудаки. - Сталинобод, 1958. – Б. 183-185.

<sup>109</sup> Богданова М.И. О классификации жанров киргизского фольклора. - Фрунзе, 1943. – С. 150.

<sup>110</sup> Народы Средней Азии и Казахстана, т. II, - М., 1963. – С. 590. 21

<sup>111</sup>Эргашев А., Халилова Д. «Ўзи билан Зебо»... - Б. 45.

uchburchak shaklidagi uchta qoziqqa o'tkazib chiqishgan. Iplar o'rab olingandan keyin uchburchak shaklidagi qoziqning bittasi olinib boshqacharoq shaklga yoki bo'lmasa, to'qish uchun qulay holatga moslashtirilgan<sup>112</sup>. Boysun tumanida istiqomat qiluvchi o'zbek qizlari ham turli matolarga kashta tikib, o'zlariga sep tayyorlashadi. Ular kashtalarning go'zal va nafis bo'lishi uchun ko'proq sanama tikishga harakat qiladilar. Biroq ba'zan kashtaning bu og'ir turini tikishga erinadilar yoki undan qochishga urinadilar. Shunday paytlarda onalari koyib, ularni sanama tikishga da'vat qiladilar<sup>113</sup>. Masalan:

Kashta tikdim sanama,  
O'tlar yondi tanama.  
Tikmay desam urinar,  
Uyda turgan enama<sup>114</sup>.

Elshunos K.Shoniyozovning yozishicha, turkiy xalqlar kashtado'zchiligida ayniqsa, kiyimlarni bezashda ko'pincha turli xildagi va rangdagi munchoqlardan foydalanishgan. Shuningdek, yupqa va yassi qilib oltindan, kumushdan yasalgan bargaklar bilan ishlangan zirak, sirg'a, uzuk, bilakuzuk, ko'krak va bo'yin taqinchoqlari ham mavjud bo'lgan. Axborotchi Yangiboeva Tursun momoning aytishicha, kiyimlarni har xil munchoq va taqinchoqlar bilan bezash ikki ma'noga ega bo'lgan: Birinchidan, bu nafosat, go'zallik va ulug'lik; Ikkinchidan, turli xil tashqi ta'sirdan saqlanish<sup>115</sup>.

*Dissertatsiyaning uchinchi bobi xulosasi shuki*, janubiy hududlar xalq dostonlarida chorvadorlarning tirikchiligi, yashash tarzi, muhiti bilan aloqador Cho'pon-otaga bag'ishlab o'tkazilgan irim-sirimlar tasviri ko'proq uchraydi. Dostonda hududda ish jarayonida hayvonlarga munosabat talqini dehqonlarga ko'maklashuvchi Bobodehqon kabi homiy zotlar animistik va totemistik qarashlar hisoblangan. Hudud xalq baxshilari dostonlarida aks etgan hunarmandchilik sohasida paxta tolasidan kiyim tikish, gilam to'qish an'anasi hududning dehqonchilik bilan shug'ullanadigan hududlar aholisida orasida bo'lsa, bundan farqli o'laroq, jundan foydalanish asosan, chorvachilik rivojlangan hududlar aholisi hayotida muhim o'rin tutgan. Bundan tashqari, mazkur kiyim, matolarga munchoqlar taqib bezak berish go'zallik va nafosat ramzidan tashqari, magik harakter ham kasb etadi.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi aholisi dostonlarida aks etgan oilaviy marosimlar va qadimgi diniy e'tiqodlarning o'ziga xos talqini”** deb nomlangan to'rtinchi bobida dostonlarda tavsiflangan go'daklik davri, nikoh marosimlari va diniy e'tiqodlarga oid aspektlar etnografik jihatdan tadqiq etilgan.

*To'rtinchi bobning “Vohalar oilaviy marosimlarida bolalik davri udumlariga oid ma'lumotlar va ularning dostonlarda aks etishi”* nomli qismida

---

<sup>112</sup> Дала ёзувлари. Ахборотчи: Алпомишова Салқин момо. Ғузур тумани, Чўмишли қишлоғи. 2006 йил 1-2 март.

<sup>113</sup> Дала ёзувлари. Бойсун тумани. Мунчоқ қишлоғи. 2019 йил. (Шоберди бахши гапириб берди 22.03.2019)

<sup>114</sup> Бойчечак. Ўзбек халқ ижоди. Кўп томлик. Тошкент, 1984. – Б. 313.

<sup>115</sup> Дала ёзувлари. Ахборотчи: Янгибоева Турсунмомо. Ғузур тумани, Чўмишли қишлоғи. 2008 йил.

“Alpomish” dostoni variantlarida talqin etilgan “beshikkerti” udumining mazmun-mohiyati, uning o‘tkazilish tartibi hamda dala tadqiqotlari va etnologik materiallar asosida tarixiy-qiyosiy yo‘sinda yoritilgan.

Qashqadaryo vohasida «beshikkerti»<sup>116</sup>, Surxondaryo vohasining ko‘p joylarida<sup>117</sup> bolalarni «unashtirish» udumi «etak yirtish»<sup>118</sup> deb nomlansa, Farg‘ona vodiysida<sup>119</sup> «sirg‘a soldi» nomi bilan yuritiladi. Xalq eposlarida urf-odat, marosimlar o‘ziga xos muhim o‘rin va ustuvor qonuniyat kashf etadi<sup>120</sup>. Masalan, Qora baxshi Umirovning «Alpomish» dostoni variantida bolalarni «Etak yirtish» qilgan Xo‘jai Xizrdir: «Boybo‘rining o‘g‘liga Hakimbek deb, Boysarining qiziga Barchinoy deb ism qo‘ydi. Hakimbekning iyniga shappat bilan bir urdi, besh panjaning izi dog‘ bo‘lib qoldi. Ikki go‘dakni ikki tizzasiga olib, ikkisiga belgi soldi. Hakimbek bilan Barchinoyning orqa etagini birga ushlab yirtidi, ikkovini etak yirtish qilib, unashtirib qo‘ydi va «Hakimbekning jovrini erga tiymasin, ikkovi voyaga etib, er xotin bo‘lsin, omin ollohi akbar» deb duo qilib ketdi<sup>121</sup>.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, «Alpomish» dostoni variantlarida, jumladan, Qora baxshi Umirov variantida Apomish va Barchin yoshligida «etak yirtish» qilingan. Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida esa, nikoh marosimi bilan bog‘liq «beshikkerti» odati aks etgan. Buning sababi shundaki, xalq baxshilari qaysi hududda yashagan bo‘lsa, o‘sha hududning nikoh marosimi bilan bog‘liq urf-odat va udumlaridan kelib chiqib dostonni kuylashgan. Qora baxshi Umirov Sherobod dostonchilik maktabi vakilidir<sup>122</sup>. L.P.Potapov Boysun va Sherobod tumanlari hududlarida ikki yoshni atab qo‘yish «etak yirtish» deb nomlanganligini ta’kidlab o‘tadi<sup>123</sup>.

Dostonning Egamberdi baxshi<sup>124</sup>, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li<sup>125</sup>, Umir shoir<sup>126</sup>, Murod Otaboy<sup>127</sup>, Saidmurod Panoh o‘g‘li<sup>128</sup>, Zohir Qo‘chqor o‘g‘li<sup>129</sup> variantlarida Boybo‘ri va Boysari bolalari tug‘ilmasdan ilgariroq quda bo‘lish haqida bir-biriga so‘z beradi. Po‘lkan va Ergash Jumanbulbul o‘g‘li<sup>130</sup>, Berdi

---

<sup>116</sup> Дала ёзувлари. Қашқадарё воҳасининг Дехқонобод, Ғузур, Қамаша, Чироқчи туманларида. 2008 йил.

<sup>117</sup> Асосан, Сурхондарё воҳасининг Бойсун, Шеробод худудларида (Дала ёзувлари. Бойсун тумани Хўжабулғон, Чилонзор, Мунчок, Газак, Панжоб, Сайроб, Тиллакамар кишлоқлари. 2019 йил.).

<sup>118</sup> Ҳамрақулова Б. Сурхондарё воҳаси аҳолисининг гўдак парвариши билан боғлиқ анъанавий урф-одатлари // Замонавий бадий маданиятда фольклор ва халқ ижодиёти. Бойсун баҳори очик фольклор фестивали материаллари. – Бойсун. 2002. – Б. 11.

<sup>119</sup> Асосан, Фарғона водийсининг қипчок этник қатламига мансуб аҳоли орасида.

<sup>120</sup> Жаббор Эшонкул. Эпос ва маросим // Замонавий бадий маданиятда фольклор ва халқ ижодиёти. Бойсун баҳори очик фольклор фестивали материаллари. – Бойсун. 2002. – Б. 36-37.

<sup>121</sup> Эргашев А., Омонова Г. Достонларда айрим урф-одатлар ва миллий қадриятлар... – Б. 41.

<sup>122</sup> Муродов М., Эргашев А. «Алпомишнома»... – Б. 90.

<sup>123</sup> Потанов Л. Материалы по семейно-родовому строю у узбеков-кунград. – С. 48-49.

<sup>124</sup> ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв. № 1530

<sup>125</sup> Ўшажойда. Инв. №191.

<sup>126</sup> Ўшажойда. Инв. № 1254.

<sup>127</sup> Ўшажойда. Инв. № 1439.

<sup>128</sup> Ўшажойда. Инв. № 733, 847.

<sup>129</sup> Ўшажойда. Инв. № 1220.

<sup>130</sup> Ўшажойда. Инв. № 4.

baxshi<sup>131</sup> variantlarida bu odat Alpomish va Barchin tug‘ilganidan keyin amalga oshiriladi. Mazkur udum faqat Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li<sup>132</sup> va Abdulla shoir<sup>133</sup> variantlarida mukammal aks etgan<sup>134</sup>. Bunga ko‘ra, bolalarni ularning qarindoshlari emas, balki homiy timsoli sifatida tasvirlangan Ali atashtiradi. «Alpomish» dostonining qoraqalpoq variantini tadqiq etgan T.Esbergenovanning ta’kidlashicha, dostonida tug‘ilmagan farzandlarni nikohlash rusumi «oqlay quda»<sup>135</sup> qozoqlarda esa bu odat (“Qo‘zi Qo‘rpesh” dostoni) “tomir” deb yuritilgan<sup>136</sup>. Ba’zi dostonlarda bu odatning tartib qoidalari buzilgan holatlar ham uchraydi. Jumladan, O‘rta Osiyo, Kaspiy orti va Yaqin Sharqda mavjud bo‘lgan «Oshiq va G‘arib» dostonining turkman variantida, (bizda «Shohsanam va G‘arib») va «Qo‘zi Ko‘rpesh», «Tohir va Zuhra» dostonlarida<sup>137</sup> ayni holatlarni ko‘rishimiz mumkin. «Oshiq g‘arib», «Tohir va Zuhra» dostonlarida vazirning o‘limi tufayli shoh o‘z va’dasidan qaytsa, «Qo‘zi Ko‘rpesh» dostonida farzandlar darvesh-homiylarsiz unashtirib qo‘yilsada, Sariboyning o‘limi tufayli bu ahd buziladi<sup>138</sup>.

*To‘rtinchi bobning “Dostonlarda nikoh marosimiga oid ma’lumotlar talqini” deb nomlangan ikkinchi qismida “Yozi bilan Zebo”, “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlarida tavsif etilgan nikoh marosimlari bilan bog‘liq etnografik motivlar tadqiq etilgan.*

Xususan, Umir shoir Safarovning «Alpomish» dostoni varianti<sup>139</sup>da Alpomish bilan Barchin o‘rtasidagi nikoh marosimining o‘ziga xos talqinini ko‘rish mumkin. Dostonida aks etgan «kampir o‘ldi» udumi<sup>140</sup> ham nikoh to‘yi tarkibiga kiruvchi qadimiy udum hisoblanadi. «Alpomish» dostonida esa, bu udum Barchinning uyida amalga oshiriladi.

Ushbu udum ba’zi joylarda kelinning uyida, ayrim hududlarda kuyov xonadonida amalga oshirilgan<sup>141</sup>. Kelin ostonani uch marta tavob qilib, poyonozga oyoq bosishi “ostona salom” deyiladi<sup>142</sup>. Bu odat ostona kulti bilan bog‘liq xalq qarashlariga borib taqaladi<sup>143</sup>. Dala tadqiqotlaridan ma’lum bo‘lishicha, «Kampir o‘ldi» udumi inson hayotida bir davr o‘rnini ikkinchi bir

<sup>131</sup>Ўшажойда. Инв. № 46.

<sup>132</sup>Ўшажойда. Инв. № 18.

<sup>133</sup>Ўшажойда. Инв. № 1217.

<sup>134</sup> Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари... – Б. 32-61.

<sup>135</sup>Есбергенова Т. «Алпамыс» достониди болалик этнографияси. // «Алпомиш» достони ва жахон халклари эпик ижодиёти» мавзуйдаги халқаро конференция материаллари. – Т.: Фан, 1999. – Б. 48.

<sup>136</sup> Потанин Г.Н. В юрте последнего киргизского царевича // «Русское богатство», 1896, № 8. - С. 84-85.

<sup>137</sup> «Тахир ва Зухра», записал Б. Каримов // Литература ва искусство Узбекистана, 1940, кн. I, - С. 70-78; Туркмения; MollaNepes. Zo‘hre – Tahir, Ашхабад, 1940 (на туркменском яз.); русский перевод: Молланепес, Зохране и Тахир, Ашхабад, 1943; Пантусов Н. Образцы таранчинской литературы. - Казань, 1909. - С. 30-48; Жирмунский В.М., Зарифов Х. Узбекский народный героический эпос. - С. 293.

<sup>138</sup> «Шасенем и Гариб», пер. Н.Мухиной и Г. Шенгили, - М., Гослитиздат, 1946. - С. 3-4.

<sup>139</sup>ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв. № 1254.

<sup>140</sup> «Кампир ўлди» удуми ўзбек халқи тўйига хос хуеусият бўлиб, аслида келиннинг хонадониди ўтказилган.

<sup>141</sup>Кармышева Б.Х., Васильев Г.П. Этнографические очерки узбекского сельского населения... – С. 237.

<sup>142</sup>ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв.№1833. – Б.30.

<sup>143</sup>Лавонен Н.А. Функциональная роль порога в фольклоре и верованиях карел //Фольклор и этнография. У этнографических истоках фольклорных сюжетов и образов. -Л., 1984. – С.171.

davr egallaganligi, ya'ni «kampir» olamdan o'tib, yosh oila paydo bo'lganligi, hayotning esa mangu davomiyligini anglatadi<sup>144</sup>.

Dostonning Umir shoir, Egamberdi baxshi, Fozil Yo'ldosh, Po'ltan va Ergash Jumanbulbul o'g'li, Murod Otaboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Mamadrayim yuzboshi, Abdulla Nurali o'g'li, Zohir Qo'chqor o'g'li, Hamro Ergash, Haydar sannovchi, Razzoq Qozoqboy o'g'li, Amin jirov variantlarida<sup>145</sup> Boybo'ri va Boysarining aka-uka ekanligini va bir hududda yashaganliklari ta'kidlanadi. Bu esa, Alpomish va Barchin o'rtasidagi nikoh shakli urug' ichida yoki endogamiya nikoh ko'rinishida ekanligini ko'rsatadi.

«Alpomish» dostonida ham Barchinning shartlari epik syujet chizig'ida muhim o'rinni egallaydi. Xalq dostonlari an'analari bo'yicha talabgor botir qizning shartlarini bajarishi yoki raqibining qo'lida jon berishi kerak<sup>146</sup>. Jumladan, Umir shoir o'g'li va shogirdi Qora baxshi Umirovning «Alpomish» dostoni variantida Barchin qo'ygan shartlar va unda ishlatiladigan qurollar ham temir davrigacha bo'lgan paytni anglatadi. Poyga, kurash, yoy otish, ming qadamdan tanga pulni urish kabilarni qadim davrlarga xos holatlarda deb hisoblash kerak<sup>147</sup>. Bu shartlar Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan, Egamberdi baxshi, Murod Otaboy o'g'li va Berdi baxshi kabi baxshilarining variantlarida Barchin tomonidan; Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Umir shoir variantlarida esa Toychaxon tomonidan qo'yiladi<sup>148</sup>.

«Alpomish» dostonining oltoy variantida, nikoh shartlarining 3 ta bo'lganligi keltirib o'tiladi. Musobaqa sharti «kimning kamon o'qi to'g'ri borib tegadi; kimning oti kuchliroq; kimning kuchi ko'proq»<sup>149</sup>, ya'ni, «kamondan o'q o'zish», «poyga», «kurash» shartlari tarzida o'z ifodasini topadi. Masalan, «Mahabhorat» dostonida shahan shohning qizi Dravpadini nikohiga olish uchun kamondan o'q uzib, besh marotaba nishonga tekkizish sharti qo'yiladi. Bu musobaqada Arjun g'olib keladi. Qizni o'zining va og'aynilarining nikohiga («polindariya») oladi<sup>150</sup>. Bu afsona asosida qadimgi hindlarda mavjud bo'lgan «svayamvara» odatidir.

«Jumo'ng» dostonida Jumo'ng o'q-yoy ramzi sifatida tasavvur qilingan quyosh tangrisining o'g'li ekanligini ko'rsatadi. «Alpomish» dostonida esa, epik qahramon etti yoshga to'lganida o'zining alpligini kamondan yoy otish orqali isbotlaydi. Binobarin, Evroosiyo xalqlari mifologiyasida kamon va uning o'qlari davlat hamda hokimiyat belgisi, odamni yovuz kuchlar xurujidan himoya qiluvchi

<sup>144</sup> Дала ёзувлари. Деҳқонобод тумани Хўжамахмуд қишлоғи, Бойсун тумани Хўжабулғон, Чилонзор, Мунчок, Газак, Панжоб, Сайроб, Тиллакамар қишлоқлари. 2019 йил.

<sup>145</sup> Мирзаев Т. «Алпомиш» дostonининг ўзбек вариантлари... – Б. 32-61.

<sup>146</sup> Зарифов Х. Основные мотивы эпоса «Алпамыш». – С. 21.

<sup>147</sup> Муродов М., Эргашев А. Алпомишнома Т. II... – Б. 86.

<sup>148</sup> Мирзаев Т. Алпомиш дostonининг ўзбек вариантлари... – Б. 32-61.

<sup>149</sup> Улагашев Н. Алтай-Бучай. – С. 314.

<sup>150</sup> Кальянов В.И. «Махабхарата», кн. I, – М., Изд-во АН СССР, – С. 466-499 («Сказание о сваямваре Драупады»).

magik ashyo sifatida talqin qilingan<sup>151</sup>. O‘q-yoyning hokimiyat, davlat va baxt timsoli deb tasavvur qilinganligi «O‘g‘uznoma» da ham o‘z ifodasini topgan<sup>152</sup>.

*To‘rtinchi bobning “Xalq dostonlarida qadimiy diniy e‘tiqodlar masalasi”* deb nomlangan uchinchi paragrafida dostonlarda aks etgan qadimiy diniy e‘tiqodlarga oid etnofolklor ma‘lumotlar etnologik jihatdan yoritilgan. Qodir baxshi Rahimov<sup>153</sup>ning «Yozi bilan Zebo» dostonidagi xastaga fol ochirish va chiroq yoqib xaloslash marosimi talqini ham ana shunday xalq inonchlariga bog‘lanadi. Masalan, Zeboni hastalik boisini aniq bilmagan onasi jo‘gi (lo‘li) folchiga fol ochiradi:

To‘da jinga duch kelibsan,  
Yura-yura ko‘p tolibsan,  
Bir insonga ko‘ngil berib,  
Iziga zor bo‘b qolibsan.  
SHu folda jin ko‘rindi, bolam...<sup>154</sup>

Hududda fol ochish jarayonida davolash usuli bilan birga bemorga qanday ins-jinslar ziyon etkazganligi va buning evaziga qanday qurbonlik qilish lozimligi ayon bo‘lgan<sup>155</sup>. Qurbonlikdan ko‘zlangan maqsad parilarni, homiy ruhlarni rozi qilish va bemor vujudiga kirib olgan yomon ruhlarni haydash edi. V.N.Basilov islomiy e‘tiqodlar bilan bog‘lanib kelayotgan urf-odatlarining ba‘zilari mazmunan aslida shomonlikka taalluqli ekanligi, uning ildizlari juda qadimga borib taqalishini ta‘kidlaydi<sup>156</sup>. Ta‘kidlash joizki, dostonda aks etgan janubiy hududlar aholisi maishiy turmush tarzida rasm bo‘lgan chiroq yoqish bilan bog‘liq diniy irim-sirimlarning boshqa vohalarda o‘tkaziladigan xuddi shu odatdan tafovutlari ko‘zga tashlanadi<sup>157</sup>. Jumladan, dostonda bemorning sog‘ayishi uchun avval qurbonlik qilingan va so‘yilgan hayvonning qonidan olib bemorga emas, balki har bir chiroqqa surtilgan. Farg‘ona vodiysining ba‘zi bir hududlarida esa, qurbonlik qilinayotgan jonivorning qonidan bir piyolaga olinib, bemor tanasining ayrim joylariga surtilgan, xolos.

Dostonda qushnach va kinnachilarning jinlar, ajinalar, yovuz kuchlarga do‘q-po‘pisa qilishi, ularni bemor tanasidan haydashda qo‘rqitish, ezgu ruhlarning madadiga tayanishi, Jo‘gi momoning doira jo‘rligida ijro etilgan aytimlarida ham ko‘rinadi:

Ushlab go‘rga tiqaman,  
Suqni senga tiqaman,  
Agar shundan chiqmasang,

<sup>151</sup>Бу ҳақда қаранг: Акишев А.К. Искусство и мифология саков. – Алматы.: Наука, 1984. – С.44.

<sup>152</sup>Щербак А.М. Огуз-наме. Мухаббат-наме. – М.-Л., 1959. – С.57–63.

<sup>153</sup> Дала ёзувлари. Деҳқонобод тумани Хўжамахмуд қишлоғи. 2019 йил.

<sup>154</sup>Эргашев А., Халилова Д. «Ёзи билан Зебо» достони... – Б. 56.

<sup>155</sup> Дала ёзувлари. Деҳқонобод тумани Хўжамахмуд қишлоғи, Бойсун тумани Хўжабулғон, Чилонзор, Мунчок, Газак, Панжоб, Сайроб, Тиллакамар қишлоқлари. 2019 йил.

<sup>156</sup>Басилов В.Н. Пережитки шаманства у туркмен-гекленов // Древние обряды верования и культура народов Средний Азии. - М., 1986. – Б. 99.

<sup>157</sup> Дала ёзувлари. Деҳқонобод тумани Хўжамахмуд қишлоғи, Бойсун тумани Хўжабулғон, Чилонзор, Мунчок, Газак, Панжоб, Сайроб, Тиллакамар қишлоқлари. 2019 йил.

Dabim<sup>158</sup> bilan boqaman.

E egama, yo jabbora, yo pirima...<sup>159</sup>

Dostondan olingan bu parchada janubiy mintaqa aholisi diniy marosimlarining keyingi ko‘rinishi bo‘lgan «qoqish» usuli qo‘llanganligi ma’lum. Qushnoch bemorni xonaning o‘rtasiga o‘tirg‘izib, uning yuzini yupqa mato bilan bekitib, hamma qarindoshlari ishtirokida marosimni o‘tkazgan. Baxshi, qushnochlar dev chalgan kasallarni davolashda doira, do‘mbira, qo‘biz, qamchi, oyna, arg‘amchi kabilardan foydalanishgan va bularning ichida cholg‘u asboblari muhim o‘rin tutgan. Baxshilar o‘zlariga homiy ruhlarni chaqirib, muloqotda bo‘lish uchun biror cholg‘u asbobini qo‘liga olib, maxsus chorlovchi «chaqiruv» matnlarini ijro etishgan<sup>160</sup>.

«Alpomish» (dostonning Fozil Yo‘ldosh, Po‘lkan shoir va Mardonaqul Avliyoqul o‘g‘li variantlari bilan qiyosiy o‘rganilganda) dostoniga qaytsak, aholi chorvachilik bilan shug‘ullanganligi uchun, ot va tuya kultiga, narsa buyumlarga sig‘inish holati totemizm, fetishizm kabi diniy tasavvurlarning biri sifatida o‘rin egallasa, Boybo‘ri bo‘ri haqidagi qadimgi turk-xunn totemistik jarayonlarining asosida shakllangan etnik atamadir.

Xalq dostonlarida qahramonga ism qo‘yish bilan bog‘liq diniy motivlarni ham uchratishimiz mumkin<sup>161</sup>. Qashqadaryolik Abdulla shoirning «Alpomish» dostonida (dostonining boshqa variantlar singari) ham bu holat islom dini ta‘limoti doirasida saqlangan bo‘lib, bolalar dunyoga kelgach amalga oshirilgan. Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li variantida qahramon tug‘ilmasdan uning otasining tushida Xizir qanday ism qo‘yish kerakligini aytsa, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li, Berdi baxshi, Egamberdi baxshi, variantlarida bolalar tug‘ilgach, Ali yoki Xizir qalandar-devona qiyofasida kelib ularga ism qo‘yadi<sup>162</sup>. Kishilarga ism qo‘yish tarixi juda qadimgi davrlar e‘tiqodlari, totemizm, shomonlik, afsungarlik ajdodlar e‘tiqodi kabi qadimiy diniy e‘tiqod va toponimlar bilan bog‘liq<sup>163</sup>. Masalan, Qahhor baxshi Qodirovning «Beva Barchin» dostonida bolaga ismni oiladagi erkak kishi qo‘yish odati tilga olinadi: «Chaqaloqning beshik to‘yini o‘tkazish, bolaga ot qo‘yish kelgusi dushanba kuniga qoldiriladi. Shunda onasi Xumoroy Barchinoyga qarab: «Bolam, chaqaloqqa nom qo‘yish zaifaning ishi emas, erkagi bor uyda bolaga nom qo‘yish mardlarning ishidir. Menimcha, bolangga ismni qaynotang Boybo‘ri shoh qo‘ygani ma‘qul», - dedi...<sup>164</sup> «Alpomish» dostonining Murod Otaboy o‘g‘li, Umir shoir, Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlarida ism

<sup>158</sup> Қашқадарё воҳасида «доира» баъзи жойларда шевага хос сўзлардан келиб чиқиб, «даб», ёки «дап» деб номланади.

<sup>159</sup>Эргашев А. Халилова Д. «ЁзибиланЗебо»... – Б. 57.

<sup>160</sup>Эшонкул Ж. Фольклор: образ ваталкин... – Б. 27.

<sup>161</sup> Веселовский Ф.Н. Историческая поэтика. – М., 1940; Потанин Г. Казак – киргизские и алтайские предания. – С. 47-48;

<sup>162</sup> Мирзаев Т. Алпомиш дostonининг ўзбек вариантлари... – Б. 32-61.

<sup>163</sup> Аширов А. Фарғона водийси аҳолисини турмуш тарзида диний эътиқодлар. Тарих фанлари номзоди дисс.: - Т.: 2000. – Б. 93.

<sup>164</sup>Муродов М., Эргашев А. «Алпомишнома» Т. II... – Б. 114.

qo'yishda Alining aralashuvi tilga olinmaydi<sup>165</sup>. Demak, eng avval ismni erkak kishi yoki urug' boshlig'i, ko'pni ko'rgan oqsoqol qo'ygan.

Dostonning Fozil Yo'ldosh o'g'li, Egamberdi baxshi, Abdulla shoir variantlarida qahramonlarning ota-onalari Shohimardon ravzasiga borib sig'inishlari tarzida ifodalanishi diniy e'tiqodning kuchli ta'siri natijasida dostonda keyinroq kirib qolgan<sup>166</sup>. Bu fikrni dostonda islom dini tarqalmasdan ilgari qadimiy tushunchalarni ifodalovchi elementlarning mavjudligi ham tasdiqlaydi.

«Alpomish» dostonidan tashqari qahramonning tug'ilish motivini jumladan, «Tohir va Zuhra», qirg'izlarning «Manas», qozoqlarning «Qoplon botir», «SHora botir», «Sain botir» kabi dostonlarida ham ayni motiv mavjud<sup>167</sup>. «Go'ro'g'li» dostoni versiyalarida qahramon go'rda tug'iladi. Lekin homila asosiga ular ikki guruhga ajraladi.

I. Homila tabiiy, qahramonning tug'ilishi g'ayritabiiy; (Qo'rg'on versiyasi (Po'ikan shoir varianti)<sup>168</sup>, Egamberdi Ollobergan o'g'li varianti<sup>169</sup>, Rahmatulla shoir varianti<sup>170</sup>, Haydar ota Boychaev varianti<sup>171</sup>, Amin Malik o'g'li versiyasi<sup>172</sup>, Xorazm versiyasi<sup>173</sup>, turkman «Go'ro'g'li»si: Moskva<sup>174</sup>, Ashgabat<sup>175</sup> nashrlari, qozoq «Korug'ly»si<sup>176</sup>.

II. Homila ham, qahramonning tug'ilishi ham g'ayritabiiy (Fozil shoir versiyasi, Laqay versiyasi, Tosh shoir versiyasi, Namangan versiyasi)<sup>177</sup>.

Qodir baxshi kuylagan «Go'ro'g'lining tug'ilishi» dostoni Po'ikan shoir variantidan farq qilgan holda epik qahramonning dunyoga kelishi qadimiy asoslarga ega. U otasiz, suv betida kelayotgan ko'pikdan ona qornida paydo bo'ladi. Ya'ni, suv kulti bilan bog'liq. Epik ot va epik qahramonning tug'ilishidayoq ilohiylik, g'ayritabiiylik namoyon bo'ladi. Voqealarning rivoji, konfliktda qadimiy asarlar etakchi o'rin tutadi<sup>178</sup>. M. Jo'raev fikricha, dostondagi

---

<sup>165</sup> Мирзаев Т. Алпомиш достонининг ўзбек вариантлари... – Б. 32-61.

<sup>166</sup> Ўша жойда... – Б. 32-61.

<sup>167</sup> Жирмунский В.М. Сказание об Алпамыше и богатырская сказка... – С. 169.

<sup>168</sup> Гўрўглининг туғилиши / Айтувчи Муҳаммад Жомрод ўғли Пўлкан. Нашрга тайёрловчи: М.Муродов. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1967.

<sup>169</sup> ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв № 1461.

<sup>170</sup> Гўрўгли / Айтувчи Раҳматулла Юсуф ўғли / Нашрга тайёрловчи Т. Мирзаев. – Тошкент: Шарқ, 2006. – Б. 409-428.

<sup>171</sup> ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв №1170.

<sup>172</sup> ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв №1515.

<sup>173</sup> Гўрўгли. Хоразмдostonлари / Нашргатайёрловчилар: С.Рўзимбоев, Х.Рўзимбоев, Г.Эшжоновна. – Ургенч: Хоразм, 2004.

<sup>174</sup> Гер-оглы. Туркменский героический эпос. – М.: Главная редакция восточной литературы, 1983.

<sup>175</sup> Гороглы. Туркмен гахрымаччылык эпосы. – Ашгбат: Туркменистан, 1990.

<sup>176</sup> Короуғлы (Короғлы жане онынуур пақтары туралы дастандар). – Алматы: Жазушы, 1973.

<sup>177</sup> Қаранг: ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв №257; ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв № 555; ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв №1459; ЎзР ФА Алишер Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти Фольклор архиви. Инв №1085. Папка №79.

<sup>178</sup> Муродов М., Эргашев А. Алпомишнома. I-китоб... – Б. 346.

epik qahramonlarning dunyoga kelishi motivining badiiy talqini ota-bobolar kulti hamda ajdodlar ruhiga sig'inish an'alariga aloqadordir<sup>179</sup>.

*Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi xulosasi shuki, «Alpomish» dostonining ommalashgan variantlarida bolalik davri bilan bog'liq «unashtirish» odati turli ko'rinishda aks etadi. Jumladan, Qora baxshi Umirovning variantida «etak yirtish» deb tasvirlanadi. Bu holatni baxshi yashab ijod etayotgan hudud aholisi nikoh marosimlarining lokal xususiyatlari bilan izohlash mumkin. «Alpomish» dostonida qahramonlar o'rtasida nikoh munosabatlarining endogam ko'rinishi namoyon bo'ladi. Dostonda tavsif etilgan nikoh shartlari patriarxat urug'chilik jamiyatining «harbiy demokratiya» davri an'analari bilan bog'liq bo'lib, ularning soni doston variantlarida turlicha talqin etiladi. «Yozi bilan Zebo» dostonida aks etgan e'tiqodiy inonchlar shomonlik e'tiqodi bilan bog'liq qarashlar hisoblansa, «Alpomish» dostoni variantlarida esa, bu kabi qarashlar qahramonning g'ayrioddiy tug'ilishi motivi islomiy mohiyat kasb etgan. Zero, farzandsiz («Tohir va Zuhra» dostoni) ota-onaning muqaddas kishilar qabr va mozorlarida tunab qolishi hamda ularning tushida «homiy» larning namoyon bo'lishi animistik tasavvurlar va ajdodlar kultiga bog'liqligi tadqiq etildi.*

## X U L O S A

